Psixologik yordam ko`rib chiqilayotgan tizim bosqichlaridan biri sifatida unda boshlovchi rol o`ynaydi va aniq ko`rinib turgan gumanistik yo`nalganligi bilan farqlanadi. Bu fakt psixologik ishning maxfiylik, ixtiyoriylik va shaxsiy manfaatdorlik, inson tomonidan o`z qayoti uchun mas'uliyatni qabul qilish, o`zaro ishonch, qo`llab-quvvatlash, shaxs va individuallikni qurmatlash kabi tamoyillarida o`z aksini topdi.

Psixologik yordam ikkita yetakchi yo`nalishga ega. Bu psixologik pryevyentsiya (ogooqlantirish, psixoprofilaktika) va psixologik intyervyentsiya (bartaraf etish, korryektsiya, ryeabilitatsiya). Psixotashhis, qoidadagiday, ishning mustaqil yo`nalishi hisoblanmaydi va psixologik yordamning maqsadi bo`lmasligi zarur. Bu faoliyatning yordamchi turi, muqim, biroq majburiy emas, qoidadagiday, qal qiluvchi oraliq amaliy vazifa.

Psixologik yordamning ikki asosiy turini batafsil ko`rib chiqamiz.

Og`ishgan axloq profilaktikasi ijtimoiy uyushganlikning turli darajalarida umumiy va maxsus tadbirlar tizimini ko`zda tutadi: umumdavlat, huquqiy, jamoatchilik, iqtisodiy, tibbiy-sanitar, pyedagogik, ijtimoiy-psixologik. Muvaffaqiyatli profilaktik ishning shartlari uning majmuaviyligi, kyetma-kyetligi, diffyeryentsialligi, o`z vaqtidaligidir. Oxirgi shart faol shakllanayotgan shaxs, masalan, o`smirlar bilan ishlashda, ayniqsa, muqim. Shuning uchun kyelgusida og`ishgan axloqning psixologik pryevyentsiyasi ko`pincha aynan o`smir yoshidagilar misolida ko`rib chiqiladi.

BSST (Butunjaqon soqliqni saqlash tashkiloti) birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikani ajratishni taklif qiladi [11, 160-b.]. Birlamchi profilaktika muayyan ko`rinishni chaqiruvchi noxush omillarni bartaraf etishga, shuningdyek, shaxsning bu omillar ta'siriga chidamliligini ko`tarishga yo`naltirilgan. Birlamchi profilaktika o`smirlar o`rtasida kyeng olib borilishi mumkin. Ikkilamchi profilaktikaning vazifasi – asabiy-psixik buzilishlarni erta aniqlash va ryeabilitatsiya qilish qamda “xatar guruhidagi”lar bilan, masalan, qozirgi vaqtda bu namoyish etilmagan bo`lmasa-da, og`ishgan axloqqa aniq ko`rinib turgan moyilligi bo`lgan o`smirlar bilan ishlash. Uchlamchi profilaktika axloq buzilishi bilan birga boradigan asabiy-psixik buzilishlarni davolashdyek maxsus vazifalarni qal qiladi. Uchlamchi profilaktika shakllangan dyeviyant axloqli shaxslarda ryetsidivni ogoqlantirishga yo`naltirilgan.

Psixoprofilaktik ish barcha uch bosqichning tadbirlar majmuasiga kirishi mumkin. hisoblanadiki, u muammoning paydo bo`lishidagi ilk bosqichlarda dyeviyant axloqni chaqiruvchi shart va sabablar ta'siri shaklida birmuncha samaralidir.

Psixoprofilaktik ishlarning turlicha shakllari mavjud [5, 12, 19, 24].

Birinchi shakl – ijtimoiy muqitni tashkil etish. Uning asosida dyeviatsiyaning shakllanishida atrofdagi muqitning dyetyerminatsiyalanuvchi ta'siri qaqidagi tasavvurlar yotadi. Ijtimoiy omillarga ta'sir ko`rsatib shaxsning istalmagan axloqi oldini olish mumkin. Ta'sir butun jamiyatga yo`naltirilgan bo`lishi mumkin, masalan, og`ishgan axloqqa munosabat bo`yicha jamoatchilikning salbiy fikrini yaratish orqali. Ish ob'yekti, shuningdyek, oila, ijtimoiy guruh (maktab, sinf) yoki aniq shaxs bo`lishi mumkin.

Ushbu modyel doirasida tobye axloq profilaktikasi o`smirlarda dastavval soqlom turmush tarzi va syergaklikka ko`rsatmani shakllantirish bo`yicha ijtimoiy ryeklamadan iborat. Ommavy axborot vositalari siyosati alohida aqamiyatga ega. Maxsus dasturlar, yoshlar suyuklilarining chiqishlari, maxsus tanlangan kinofilmlar – bularning barchasi qozirgi vaqtda kuzatilayotganga qaraganda boshqa sifatli darajaga ega.

Yoshlar submadaniyati bilan ishlash “Yoshlar giyohvandlikka qarshi” harakati yoki ommaviy rok-guruhlarining chiqishlari bilan shu nomdagi aktsiya shaklida tashkil etilgan bo`lishi mumkin. Yoshlar o`zlarining bo`sh vaqtlarini o`tkazadigan va muloqot qiladigan joylarda ular bilan ish8lash muqimdir. Masalan, diskotyekalarda niqobdagi sirli odamlar paydo bo`lishi mumkin. Oqshom yakunida yoshlar ulardan giyohvand moddalardan yaqin odamlarini yo`qotish bilan bog`liq kyechinmalar va tragik taqdirlar qaqida bilib olishlari mumkin.

O`smirlar bilan ishlash, shuningdek, ko`chada tashkil etilishi mumkin. qator davlatlarda tyegishli ishlarni olib borish uchun o`smirlar sardorini tayyorlash mavjud.

Shuningdek, ushbu yondoshuv doirasida istalmagan axloq bilan qo`shilmaydigan sharoit va ko`maklashuvchi "zona"larni yaratishga urinish qo`llanilmoqda. Modyelning asosiy kamchiligi ijtimoiy omillar va og`ishgan axloq o`rtasida to`qridan-to`qri bog`liqlikning yo`qligi hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu yondoshuv yetarlicha samarador bo`lib ko`rinadi.

Psixoprofilaktik ishning ikkilamchi shakli – xabardor qilishdir. Bu biz uchun birmuncha odatiy psixoprofilaktik ishni olib borishning ma'ruza, suqbat, adabiyotlar yoki vidyeo- va tyelyefilmlarni tarqatish shaklidagi ko`rinishi. Yondoshuv moqiyati konstruktiv qarorlar qabul qilishga uning layoqatini ko`tarish maqsadida shaxsning kognitiv jarayonlarida ta'sir ko`rsatishga urinishdir.

Buning uchun, odatda, statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan, masalan, giyohvand moddalarning salomatlik va shaxsga qalokatli ta'siri qaqidagi axborotlardan kyeng foydalaniladi. Ko`pincha axborot qo`rqituvchi xaraktyerga ega. Bunda giyohvand moddalarni istye'mol qilishning salbiy oqibatlarini sanab o`tiladi yoki dyeviyantlarning dramatik taqdiri, ularning shaxsiy dyeegradatsiyasi yoritib byeriladi.

Usul qaqiqatan bilimni kuchaytiradi, biroq axloqni o`zgartirishga yomon ta'sir ko`rsatadi. O`z-o`zidan xabardor qilish dyeviatsiya darajasini pasaytirmaydi. Ba'zi qollarda, aksincha, dyeviatsiya bilan erta tanishuv unga qiziqishni kuchaytiradi. Cho`chitish ham axloqning ushbu turini motivatsiyalovchi kognitiv-hissiy dissonansni uyqotishi mumkin.

qator qollarda axborot o`z vaqtida byerilmaydi: o`ta kyech yoki o`ta erta. Masalan, o`smirlar bilan ishlash tajribasining ko`rsatishicha, giyohvand moddalarga tobye bo`luvchi axloqni ogoqlantirish bo`yicha suqbatlar 14 yoshdan kyech bo`lmaganda olib borilishi lozim. Ular giyohvand moddalar va ular kyeltirib chiqaruvchi kuchli ta'sirni batafsil yoritishdan iborat bo`lmasligi darkor. Bunday suqbatlar dyeviyant axloq va undan saqlanish usullarining oqibatlarini muqokama qilishga, faol shaxsiy nuqtai nazarni ishlab chiqishga yo`naltirilgan.

Ushbu yondoshuvning istiqbolli rivojlanishiga cho`chituvchi axborotlarning ustunlik qilishidan, shuningdek, jins, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy tavsifnomasi bo`yicha axborotlarni diffyeryentsiatsiyalashdan voz kyechish yordamlashishi mumkin.

Tryetya forma psixoprofilaktik ishning uchinchi shakli – ijtimoiy-muqim malakalarga faol ijtimoiy o`rgatishdir. Ushbu modyel ko`pincha guruhli tryeninglar shaklida amalga oshiriladi. qozirgi vaqtda quyidagi shakllar tarqalgan.

Salbiy ijtimoiy ta'sirga ryezistyentlik (maqkamlik) tryeningi. Tryening davomida dyeviyant axloqqa ko`rsatmalar o`zgaradi, ryeklamali stratyegiyani tanib olish malakasi shakllanadi, tyendoshlari bosim o`tkazganida "yo`q" dyeya olish layoqati rivojlanadi, ota-onalar va boshqa kattalarning (masalan, ichkilik istye'mol qiluvchi) salbiy ta'sir eqtimoli qaqida axborot byeriladi va q.k.

Assyertivlik yoki affyektiv-qadriyatli ta'lim tryeningi. Dyeviyant axloq byevisita hissiy buzilish bilan bog`liq dyegan tasavvurga asoslangan. O`smirlarni

ushbu muammolaridan oldindan xabar berish uchun hissiyotlarni tanish, ularni maqbul obrazda ifodalash va istryessni mahsuldor uddalashga o`rgatiladi. Guruhli psixologik ish davomida qaror qabul qilish malakasi shakllanadi, o`z-o`zini baholash ko`tariladi, o`z-o`zini aniqlash va ijobiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni raqbatlantiriladi.

qayotiy malakalarni shakllantirish tryeningi. qayotiy malakalar tushunchasi ostida shaxsning birmuncha muqim ijtimoiy ko`nikmalari tushuniladi. Dastavval, bu muloqot qilish, do`stona aloqalarni saqlash va shaxslararo munosabatlardagi nizolar konstruktiv qal qilish malakasidir. Shuningdyek, bu o`z zimmasiga mas`uliyatni ola bilish, maqsad qo`yish, o`z nuqtai nazari va manfaatlarini qimoyalash qobiliyati qamdir. Nihoyat, o`z-o`zini nazorat qilish, o`zi va atrofdagi vaziyatni o`zgartirishga ishonchli axloq malkasi hisoblanadi.

O`smirlar bilan ishlashda ushbu modyel birmuncha istiqbollilardan birini aks ettiradi.

To`rtinchi shakl – altyernativ dyeviant axloq faoliyatini tashkil etish. Ishning bu shakli dyeviant axloqning o`rinbosar samarasi qaqidagi tasavvurlari bilan bog`liq. Masalan, addiksiya shaxsiy dinamika – o`z-o`zini baholashni oshirish yoki ryefyeryent muqit intyegratsiyasida muqim rol o`ynashi mumkin. Taxmin qilinadiki, odamlar kayfiyatni yaxshilovchi psixofaol moddalardan uning o`rniga nimadir yaxshiroqini olmaganlaricha foydalanadilar. Faollikning altyernativ shakllari sifatida quyidagilar tan olindi: bilim (sayoqat), o`zini sinash (toqqa sayoqat, xatarli sport), aqamiyatli muloqot, syevgi, ijodkorlik, faoliyat (shu jumladan, professional, diniy-ma`naviy, qomiylik).

Bu shakl shakllangan og`ishgan axloq qolatida yordam ko`rsatishning dyeyarli barcha dasturlarida amalga oshiriladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida mustaqkam qiziqishlarni erta tarbiyalash, syevish va syevimli bo`lishga qobiliyatni rivojlantirish, o`zini band qilish va myeqnat qilish ko`nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport, san`at, bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini tushunishlari kyerak. Agar o`smir yoshida ijobiy ehtiyojlar shakllanmagan bo`lsa, shaxs salbiy ehtiyoj va bilimlarga nisbatan zaif bo`lib qoladi.

Byeshinchi shakl – soqlom turmush tarzini tashkil etish. U salomatlik uchun shaxsiy javobgarlik, atrofdagi dunyo va o`z organizmi bilan uyqunlik qaqidagi tasavvurlardan kyelib chiqadi. Odamning maqbul qolatga erishish va muqitning noxush omillariga muvaffaqiyatli qarshi tura olish ko`nikmasi, ayniqsa, qimmatli hisoblanadi. Soqlom turmush usuli soqlom ovqatlanish, muntazam jismoniy yuklama, myeqnat va dam olish tartibiga amal qilish, tabiat bilan muloqot, ortiqcha narsalarni istisno qilishni ko`zda tutadi. Bunda usul ekologik tafakkurga asoslangan va aqamiyatli tarzda jamiyat rivojlanishining darajasiga bog`liq.

Oltinchi shakl – shaxsiy ryesurslarning faollashuvi. O`smirlarning sport bilan faol shuquullanishi, guruhlardagi muloqot va shaxsiy o`sisdagi ishtiroki, arttyerapiya – bularning barchasi, o`z navbatida, shaxs faolligi, uning soqligi va tashqi salbiy ta`sirga maqkamligini ta`minlovchi shaxsiy ryesurslarni faollashtiradi.

Yettinchi shakl – dyeviant axloqning salbiy oqibatlarini minimallashtirish. Ishning ushbu shaklidan shakllanib bo'lgan og'ishgan axloq qollarida foydalaniladi. U ryetsidiv yoki uning salbiy oqibatlarini profilaktika qilishga yo'naltirilgan. Masalan, giyohvandlikka tobye bo'lib qolgan o'smirlar o'z vaqtida tibbiy yordam, shuningdek, shunga o'xshash kasalliklar va ularni davolash bo'yicha zaruriy bilimlarni olishlari mumkin.

Psixoprofilaktik ishning xilma-xil ko'rinishlarida o'xshash shakllar va usullardan foydalanish mumkin. Ishni tashkil etish usuli bo'yicha psixoprofilaktikaning quyidagi shakllarini ajratish mumkin: individual, oilaviy, guruhli ish. Og'ishgan axloqni oldini olish maqsadida turlicha ijtimoiy-psixologik usullardan foydalaniladi. Psixoprofilaktik ishning yetakchi usullari orasida: xabardor qilish, guruhli munozaralar, tryening mashqlari, rolli o'yinlar, samarador ijtimoiy axloqni modiyallashtirish, psixoterapyevtik uslublar bor.

Foydalanilgan usullarga bog'liq ravishda psixoprofilaktik ish tryening, ta'lim dasturlari (masalan, maktabdagi maxsus kurslar), psixologik maslaqatlar, krizis yordami (ishonch tyelyefonlari), shuningdek, chygara qolati va asabiy-psixichk buzilish psixoterapiyasi shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Dyeviant axloqning o'ziga xosligiga muvofiq ravishda psixoprofilaktika ishlarining quyidagi tamoyillarini ajratish mumkin:

– majmuaviylik (oila va shaxs, ijtimoiy borliqning turli darajasiga ta'sirni uyushtirish);

– manzillilik (yosh, jinsiy va ijtimoiy tavsifnomalarni hisobga lish);

– ommaviylik (ishning guruhli shakli birlamchiligi);

– axborotning ijobiyligi;

– salbiy oqibatlarni eng kam darajaga tushirish;

– ishtirokchilarning shaxsiy manfaatdorligi va mas'uliyati;

– shaxsning eng yuqori darajadagi faolligi;

– kyelajakka intiluvchanlik (axloq oqibatlarini baholash, ijodiy qadriyatlar va maqsadlarni dolzarblashtirish, dyeviant axloqsiz kyelajakni ryejalashirish).

### **Shaxs og'ishgan xulqining psixologik intyervyentsiyasi**

Shaxs og'ishgan xulqining intyervyentsiyasi ijtimoiy-psixologik ta'sirning yana bir yo'nalishi hisoblanadi. Psixologik intyervyentsiya – bu ijobiy o'zgarishlarni raqbatlantirish uchun shaxsiy borliqqa psixologik aralashuv. Shaxs dyeviant axloqi intyervyentsiyasi bo'shshish yoki uning axloqidagi ijtimoiy moslashuvga to'sqinlik qiluvchi shakllarni bartaraf etishdan iborat.

Psixologik intyervyentsiyaning farqli xususiyatlari umuman olganda shaxsning o'zi tomonidan o'zgarishga bo'lgan istak, uning psixolog bilan qamkorlik qilishga tayyorligi hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarning og'ishgan xulqi qolatida tashabbus va rozilik bola manfaatlarining qonuniy vakillaridan chiqishi darkor.

Shaxs og'ishgan xulqi bilan ishlashda asosiy qiyinchilik, qoidadagiday, ijtimoiy-psixologik yordamning birinchi bosqichida odam o'z axloqining aniq ko'rinish turgan salbiy oqibatlariga qaramay o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishidan

iborat. Bunday qollarda aralashuv uchun asos dyeviatsiya yetkazga zarar darajasi yoki shaxsning ijtimoiy moslashmaganligi darajasi bo'lishi mumkin. Masalan, giyohvand moddalarga tobye insonning yordam uchun murojaatiga sabab ko'pincha yoxud soqligi bilan jiddiy muammo, yoxud uning "ijtimoiy jarlik" vaziyatiga erishishi bo'lishi mumkin. Giyohvand moddalarni istye'mol qiluvchilar bilan birga yuradigan kasalliklar yaxshi ma'lum – gyepatit, OIV-infyektsiya, psixik buzilishlar. Ijtimoiy dyegradatsiya, o'z navbatida, kriminalizatsiyada, myeqnatga layoqatning yo'qolishida, yakkalanishda, turar-joy va oilani yo'qotishda ifodalanadi.

Shunday qilib, dyeviant axloqda psixologik aralashuvning yetakchi vazifalari quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

ijtimoiy moslashuv yoki soqayishga motivatsiyaning shakllanishi; –  
shaxsiy o'zgarishlarni raqbatlantirish;

og'ishgan xulq aniq shaklining korryektsiyasi;

shaxsiy o'zgarishlar yoki soqayish uchun yoqimli ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yaratish.

Ishning samaradorligi istalmagan axloq (masalan, giyohvand moddalarni istye'mol qilish qolati) ni kamaytirishning ob'yektiv byelgilari bo'yicha bo'lganiday, sub'yektiv o'zgarishlar (masalan, soqlom turmush tarzini kyechirishga istakning kuchayishi) bo'yicha ham baholanadi. Ijobiy o'zgarishlarning birmuncha muqim myezonlaridan biri shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasini ko'tarish bo'lib chiqadi.

Og'ishgan xulqning psixologik intyervyentsiyasi qolatida psixologik ta'sirning ko'pincha psixoprofilaktik ishdagi barcha ma'lum usullaridan foydalaniladi. Psixologik intyervyentsiyaning yetakchi usullari psixotyerapiya, psixologik maslaqat byerish, psixologik tryening, organizatsiya tyerapyevtik yoki sanogyenli muqitlar hisoblanadi.

Shaxs bilan psixologik ish olib borishning birmuncha ommaviy shakli psixotyerapiya bilan uyqunlikda maslaqat byerish hisoblanadi. Dyeviant axloq qolatida yordamning ajratilgan ikki shakli o'rtasidagi chyegaralarni farqlash amaliy jiqatdan juda qiyin. "Maslaqat byerish" atamasi soqlom odamlar bilan ishlash uchun anchagina maqbul. Axloqiy dyeviatsiyaning murakkab xaraktyeri, uning oqriqli buzilishga o'tishga moyilligini inobatga olib, kyelgusida psixotyerapiya yoki maslaqab byerish qaqida gapirganda biz aynan ularning munosib birkmasini nazarda tutamiz.

Shaxsning yagona nazariyasi yo'qligida maslaqat byerish (psixotyerapiya) ning turlicha kontsyepsiya va shakllari mavjud. Uchta yetakchi yo'nalish birmuncha rivojlanish va tan olishni oldi: psixoanalitik, kognitiv-axloqiy, gumanistik. Bu tarixiy modyellar qayotga yuzlab modifikatsiyani byerdi, buning oqibatida turlicha tasniflar paydo bo'ldi. Intyervyentsiya maqsadiga bog'liq qolda psixotyerapiyaning uch turi ajratiladi [18]:

– qo'llab-quvvatlovchi psixotyerapiya – mavjud qimoya kuchi va ancha yangi samarali axloq usullarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;

– qayta o'rganuvchi psixotyerapiya – axloqni o'zgartirishga intilish;



– shaxsiy-ryekonstruktiv – intrapsixik janjallarni anglash orqali ichki shaxsiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan.

Klinik amaliyotda psixoterapiya usullarini simptom-markazlashgan, shaxsiy-markazlashgan va ijtimoiy markazlashganga bo'lish qabul qilingan. Psixoterapiya turlicha shakllarda amalga oshirilishi mumkin, masalan: guruhli, oilaviy yoki individual, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli, muammolarni yechish yoki shaxsiy o'zgarishlarga mo'ljallangan diryektiv yoki nodiryektiv. Amaliyotda ko'pincha kombinatsiyalangan usullardan foydalaniladi. Bundan tashqari, asosiy psixoterapyevtik usullarning ko'plab modifikatsiyasi mavjud. Masalan, B. D. Karvasarskiy [22] taqriri ostidagi Psixoterapyevtik entsiklopyediyada yuzga yaqin psixoterapyevtik usullar yoritilgan, ularning ryeal miqdori esa yanada ko'proq. Ko'pgina mualliflar ayni vaqtda mutaxassis shaxsining aqamiyatiga diqqatni tortgan qolda psixoterapiyaning taxminan tyeng ta'sir qiluvchi xilma-xil turlarini ta'kidlaydi.

Nazorat savollari va topshiriqlar

Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatishda komplekxslilik tamoyilini ochib byering.

Og'ishgan xulq psixoprofilaktikasining maqsadlari, tamoyillari va shakllari qandayq

Psixoprofilaktikaning asosiy kontsyeptual modyelini sanab byering.

Shaxs og'ishgan xulqining psixologik intyervyentsiyasi nima dyeganiq Uning vazifalari, shakl va usullari qandayq

## **10-Mavzu: Tarbiyasi qiyin o'smirlarga yondoshishnng psixologik asoslari.**

### **Reja:**

1. Tarbiyasi qiyin o'smirlar tushunchasi.
2. Tarbiyasi kiyin o'smirlarda ahlokiy qoida va tushunchalarning yetishmasligi.
3. Xulqi og'ishgan bolalar bilan olib boriladigan ishlar shart-sharoitlari.

### **Tayanch iboralar:**

tarbiyasi kiyin o'smir tushunchasi, ahlokiy qoidalar, tushunchalar yetishmasligi, sharoit. Tarbiyasi qiyin o'smir psixologiyasi, tarbiya va ta'lim, tarbiyasi kiyin o'smirlar psixologiyasi vazifalari va ahamiyati.

Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi o'smirlarning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandır.

Tarbiya g'oyat murakkab psixologik jarayondir. Shuning uchun xam ulug' o'zbek pedagogi va ma'rifatparvari Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida shunday deb yozganlar. «Alxosil, tarbiya bizlar uchun yo xayot - yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir». (Toshkent, «O'kituvchi» nashriyoti, 1967 yil, 27-bet).

Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov xam o'zlarining nutqlarida Abdulla Avloniyning bu fikrining ma'nosini bir karra quyidagicha ta'kidlab o'tgan

edilar: «Men Abdulla Avloniyning: «Tarbiya biz uchun yo xayot - yo mamot. yo najot. yo halokat. yo saodat - yo falokat masalasidir». - degan fikrini ko'p mushoxada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muxim va dolzarb bo'lgan bo'lsa hozirgi kunda biz uchun xam shunchalik, balki undan xam ko'ra muxim va dolzarbdir. Chunki ta'lim-tarbiya-ong maxsuli, lekin ayni vaktida ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmayli. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maksad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi». («Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. 2000 yil.Z-b).

Mustaqillika erishganimizdan so'ng milliy kadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan e'zozlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug'larning xam ta'siri) bu borada katta axamiyatga ega. Lekin ba'zan oilada tarbiyaviy faoliyatning susayishi targ'ibot-tashviqot ishlarining komilligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlari ta'siriga berilish, ma'naviy buzuqlik yo'liga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli xollardan biridir. Jamiyatning komil fukarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining muxim funksiyasi darajasiga kiradi. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oilada tarbiya orkali shaxsga ma'lum bir siyosat g'oyaviy dunyokarash, axlokiy me'yorlar va xulk namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va kadriyatlarni o'zlashtiradi ijtimoiy xayotga kirib boradi. Ota-onalar va farzandlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar xam tarbiyaviy ishni qiyinlashtiradi, o'smirlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday nizo, kelishmovchiliklar o'smirlarning axloqiga ta'sir etadi.

Dunyoqarashlar orasidagi mavjud farqni xisobga olmasa tarbiyasi kiyin o'smir bola ko'payadi.

Yoshlar, o'smirlarning bo'sh vaqtini mustaqil tashkil etilmasa xulqi og'ishgan bolalar ko'payadi.

Ota-onalar ichkilikka ruju qo'ysa yoki or-nomusni yig'ishtirib qo'yib buzuqchilik qilsa xulqi og'ishgan bolalar ko'payadi.

Ota-onalarning psixologik-pedagogik bilim saviyalari yetarli darajada emasligi natijasida tarbiyasi kiyin o'smirlar ko'payadi.

Insonning biologik, fiziologik, psixologik o'sishining (rivojlanishining) eng murakkab o'zgarishlar, kayta qurishlar, umid, intilishlar davri va shu bilan birga og'ir inqirozlar salbiy holatlar, kechinmalar davri hamdir. Ma'lumki, affektiv ko'zg'aluvchanlik ko'p jihatdan o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Bu xolat me'yorda ham kuzatiladi. Uning vujudga kelishi bu yosh fazasining vegetativ-endokirin jihatdan kayta qurilishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu yosh davri xam psixologik tomonidan o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bu o'smir yosh davrining fenomeni xamdir. Biologik o'zgarish endokrin sistemaning qayta ko'rilishi bo'lsa, psixologik o'zgarish portlash va agressiyaga (tajovuzkorlik) moyil bo'lgan affektiv ko'zg'aluvchanlikdir. Bu holat ko'pincha ijtimoiy adaptasiyaning (moslashishning) buzilishi jumladan konunbuzarlikning sabablaridan biri bo'lib xisoblanadi. Ammo psixik sog'lom atrof-muxitning qulay sharoitlarida tarbiyalanayotgan o'smirlarda affektiv ko'zgaluvchanlik adaptasiyaning buzilishiga olib kelmaydi. Statistikaning ko'rsatishicha xar bir o'ninchi jinoyat voyaga yetmaganlar

tomonidan sodir kilinar ekan. Bu faktning ma'nosi faqat konunbuzarlar tomonidan yetkazilgan zarar bilan aniqlanmaydi, albatta. Zero balog'atga yetmagan jinoyatchining shaxsi jinoyatchilik muammosining krizis «Kristallashgan» markazi bo'lib hisoblansa, uni o'rganish va korreksiyasi esa bu nukson bilan kurashishning eng dolzarb savollaridan biri xisoblanadi.

O'smir shaxs xarakteridagi «og'ish» larning shakllanishi ularning tiplarini aniqlash tibbiy-psixologik va tibbiy pedagogik ishlarni aktiv olib borish zarurdir. Bizning asosiy maqsadimiz aziz o'kuvchilarga tarbiyasi «qiyin» o'smirlar xarakteridagi «og'ish» larining psixologik xususiyatlarini aniqlash: o'smirlik davridagi deviant, xulq-atvor va uning klassifikasiyasi: tarbiyasi «qiyin» o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari xaqida ma'lum bilimlarni berishga xarakat qilishdir.

O'smirlar psixologiyasini chuqur va xar tomonlama bilish, ularni o'qitish va tarbiyalash samaradorligining eng muxim shartlaridan biridir.

Pedagogik jihatdan o'z holiga tashlab qo'yilgan o'smirlarning psixologik xususiyatlari asosan ularning hayoti va tarbiyasining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Yukorida biz ikkita keng tarqalgan terminni ishlatdik: pedagogik jihatdan o'z xoliga tashlab qo'yilgan o'kuvchilar hamda tarbiyasi qiyin o'smirlar. Birok bu terminlar orasida farqlar xam bor. «Pedagogik jixatdan o'z xoliga tashlab qo'yilgan» tushunchasi o'smirni tarbiyalash tarixini tavsiflaydi, «Tarbiyasi qiyin» deyilganda shunday tarbiyaning natijalari tushunladi: o'kuvchi pedagoglar uchun qiyinchilik qiladi, unga nisbatan umumiy qabul kilingan pedagogik ta'sir etishning forma-shakl va metodlari kamlik kiladi yoki umuman samara bermaydi. Pedagogik jixatdan o'z xoliga tashlab qo'yilgan bola erta-kechmi tarbiyasi qiyin bola, o'smir bo'lib qoladi. Tarbiyasi qiyinlik esa hamisha xam pedagogik jixatdan o'z xoliga tashlab ko'yilganlikning oqibati bo'lavermaydi. U bolaning o'smirning kasal bo'lishi, ayrim tug'ma yoki hatto nasliy omillar yoki boshka sabablar ta'sirida xam yuz berishi mumkin. Biroq juda ko'p xollarda tarbiyasi qiyin o'kuvchi pedagogik jixatdan o'z holiga tashlab ko'yilganlik natijasi bo'lib qoladi. Biz pedagogik jixatdan o'z xoliga tashlab qo'yilgan va «Tarbiyasi qiyin» tushunchalarini, asosan unga pedagogik qarovsiz qolgan va umumiy qabul qilingan ahloq normalarini muntazam buzib yuradigan o'quvchilarni bildiradigan so'zlar terminlar sifatida ishlatamiz, ko'llaymiz.

Noto'g'ri, yoki hozirda ba'zan og'ib turadigan deb ataladigan ahloqning subyektiv psixologik asosi avvalo, shaxsning axlokiy-irodaviy rivojlanishining yetishmasligidir. Biz bu ikki tushunchani qo'shib yuborishimiz bejiz emas.

Pedagogik jixatdan o'z xoliga tashlab ko'yilgan o'kuvchilarning muloxazalarida esa xammadan ko'ra shaxsning jinoiy ish yoki shunga yakin qilmishlari: ichkilikbozlik, foxishalik, nashavandlik. giyoxvandlik. o'g'irlik, birovni qiynab rohatlanish, qotillik kabilar asosiy o'rin olgan. Bunda shunga o'xshash o'smirlarning oila tarbiyasi xususiyatlarigina emas, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan olib boriladigan pedagogik ishdagi muxim kamchiliklar xam aks etadi. Ularni qayta tarbiyalash vaqtida e'tibor shaxsning qadr-qimmatiga emas, balki uning kamchiligiga tushadi: «Aldama! O'g'irlik kilma! Bezorilik kilma!».

O'smirlarning axloqiy bilimlari bilan ularning ahlok tajribasi uzviy bog'lik bo'lsa-da, bu bog'lanishning bir necha eng yirik variantlari mavjud;

1. Asosiy ahloqiy normativlar nomigagina beriladi, biroq tegishli tajriba yo'k yoki kam, shuning uchun to'g'ri xulq-atvor zarurligiga ishonch ham yo'k.

2. Ijodiy tajriba mavjud, biroq ahloqiy hatti-xarakat va uning moxiyatiga qo'yiladigan talablar haqida zarur bilim yo'q, yetishmaydi.

3. Maktabda egallangan bilim va tajriba odamlar bilan shaxsiy muomalada bir-biriga ta'sir ko'rsatish natijasida hosil kilingan bilim va tajribaga qarama-qarshi bo'lib qoladi.

4. Nihoyat, axloq koidalariga xilof xulk-atvor o'smirning ahloqiy tasavvuri va e'tiqodi bilan uzviy bog'liq bo'lgan xollar xam mavjud.

O'kuvchining axloqiy rivojlanishi asosan uning tevarak-atrofidagi kishilarga, o'z-o'ziga to'g'ri munosabatni shakllantirish bilan ko'shib ketadi. «Axir tarbiya avvalo, bizning munosabatlarimizdan, masalan, o'z ishiga vijdonan munosabatda bo'lish, o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish, o'z burchiga fidokorona munosabat, kishilarga znyraklik bilan munosabat, muqaddas O'zbekistonga - ona Vatanga sadoqat bilan munosabat, uning dushmanlariga murosasizlikdan iborat emasmi?»

Shaxs munosabatlarning murakkab sistemasida shakllanadi. Bu munosabatlar ongda aks etib va umumlashtirilib, kishining voqyealikka shaxsiy munosabatiga aylanadi, uning o'zini-o'zi anglash va o'z-o'ziga baxo berish kobiliyatining muxim tarkibiy kismi bo'lib koladi. Bu esa kishining voqyeilikka, boshqa kishilarga noto'g'ri munosabati muomaladagi kandaydir kamchiliklar yoki bevosita ijtimoiy-psixologik nuqsonlar natijasida tug'iladi, demakdir. Shuning uchun pedagogik jihatdan o'z xoliga tashlab qo'yilgan o'smirlar bilan ishlashga kirishishdan oldin eng avvalo uning subyektiv (uning tevarak-atrofdagilarga munosabat) va obyektiv (uning kishilar bilan o'zaro muloqotdagi xususiyatlari) munosabatlari sistemasini tushunib. farqlab olish kerak.

Pedagogik jihatdan o'z xoliga tashlab ko'yilgan o'smirlarning shaxsiy muomala doirasi xususiyatlariga qarab ko'pincha ularning kishilarga munosabatlari xam aniqlanadi. Bu yorokin xususiyatlardan biri kattalarga, shu jumladan o'kituvchilarga xam ishonmaslik va yoktirmay munosabatda bo'lishdir. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha o'smirlar avvalo o'kituvchilar tomonidan ularga bo'lgan munosabatni kadrlaydilar. (Fikr-muloxazalarning 84%) shuni e'tirof etgan.

O'smir xali juda yosh, unda turmush, ijtimoiy tajriba kam, u kishilarni farq qila bilmaydi, ularning xulk-atvori hamda hatti-xarakatini har tomonlama baholay bilmaydi. Ba'zi odamlar uni bir necha marta xafa qilganlar. U hamma odamlar shunday degan xulosaga keladi. Natijada uning kattalarga (ularning bolalarga odilona va yoqimli munosabatiga) ishonch xosil qilguniga qadar hiyla vaqt o'tadi (pedagogik jixatdan o'z xoliga tashlab qo'yilgan o'smirlar tez tuzaladi, deb xisoblash soddalikdir).

Birok, pedagogik jihatdan o'z xoliga tashlab qo'yilgan o'kuvchilarning ko'pchiligi kattalar bilan muomala qilishga ehtiyoj sezadi. Shu bilan birga, ular mustasnosiz xamma kattalarga salbiy munosabatda bo'ladilar.

## **11-Mavzu: Tarbiyasi qiyin o'smirlarni o'rganish tamoyillari**

### **Reja:**

1. Tarbiyasi kiyin o'smirlarni o'rganish tamoyillari xaqida tushuncha.
2. Tarbiyasi kiyin usmirlarni o'rganish tamoyillari va ularning o'zaro bog'likligi.
3. Tarbiyasi kiyin usmirlarni o'rganish tamoyillarining axamiyati.

### **Tayanch iboralar:**

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni o'rganish tamoyillarining bog'likligi va ularning ahamiyati. Usmirlik yoshi, o'smir psixologik xususiyatlari, o'smir xulk-atvor reaksiyasi va usmirlar bilan olib boriladigan ishlarga qo'yiladigan talablar,

O'smirlarga individual yondoshishining eng murakkab sharti, ularning psixologik xususiyatlarini mukammal bilishdir. Aks xolla, individual yondoshish haqidagi xar kandy gap quruq safsata bo'lib qoladi.

Shaxsni chuqur va xar tomonlama bilish uni alohida ajratilgan individ sifatida emas, balki jamoa bilan aloqada bilish demakdir.

O'smirni o'rganishning quyida gap boradigan barcha tamoyillari ajralmas va o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Ular kuyidagilardan iboratdir:

**Birinchidan:** o'smirning individual xususiyatlari ko'p sonli va xilma-xil bog'lanish va munosabatlar sistemasida bog'likdir. Bu o'smirning biror-bir xususiyati yoki xarakter xususiyati xam o'z-o'zidan namoyon bo'la olmaydi va qayd etilmaydi. Masalan, o'smirda o'tkir va sinchkov aklni payqaymiz. Lekin agar biz uning aqli (bilimiga qaratilganligi, qizikishi) nimaga yo'naltirilganligini, uning sinchkovligi kasbini egallashda namoyon bo'lish-bo'lmasligini, uning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatiga ta'sir etish-etmasligini va xokazolarni biz bilib olmasak. bu xususiyatning axamiyati qolmaydi. Yoki, o'smirni irodasiz deb xisoblaydilar. Biroq umuman ruxi sog'lom kishi irodasiz bo'lmaydi. Demak, u qandaydir muayyan vaziyatda, faoliyatning turlarida, muayyan kishilar bilan muomalada irodasiz bo'ladi. Qachon, kayerda, kandy kishilar bilan?

**Ikkinchidan:** bu prinsip - tamoyil - obyektivlik. Inson haqida, hatto o'ta tajribali mutaxassis bo'lmasin, qandaydir bir kishining fikriga karab xulosa chiqarib bo'lmaydi. Axir har kandy sharoitda ham uning fikri shaxsiy, kolaversa, xato xam bo'lib, chiqishi mumkin. Pedagogik psixologik tajribali pedagog talaygina shunday xollarnigina biladi. Kishini to'g'ri tushunish uchun u xaqdagi fikrlarni lekin uni yaxshi biluvchi kishilarning fikrlarini qiyoslab ko'rish kerak. Bu ishini o'smir xaqidagi fikrlari anchagina asosli bo'lgan kishilar - uning ota-onalari, o'qituvchilari, do'stlari kilishi lozim.

Biroq o'smirni o'rganishning obyektivligi u xakdagi fikrlarni kiyoslash bilan cheklanmaydi. Uni xulk-atvor va faoliyatning turli xil sharoitda bilish va tushunish muximdir. Bu xakda yukorida to'xtalib o'tilgan edi. O'smirning turli kishilarga bo'lgan munosabatiga berilgan baho o'ta axamiyatli ekaligini ko'shib qo'yamiz, xolos. Bu munosabat bir xilmi, barqarormi yoki tanlab kilinadimi? Masalan, u xammaga xam xurmat bilan munosabatda bo'ladimi yoki fakat o'zi bog'liq bo'lgan kishilargaginami? Hammaga va xar kandy sharoitda dadilmi yoki kuchlirok kishi qo'llab-quvvatlagan sharoitdagina dadilmi?

Kishi xaqida uning mexnat mahsuliga karab ko'prok narsani bilib olish mumkin. O'smir uchun mexnat mahsuli bu umumiy ta'lim va nazariy predmetlardan yozma ishlar, chizmalar, rasmlar, ishlab chiqarish praktikasi maxsuli, ko'lda yasalgan turli narsa va boshkalardir.

Nihoyat, o'smirning so'zi bilan hatti-xarakterini solishtirib ko'rish juda muxim xisoblanadi. Odatda prinsipli, saranjom, irodali, muayyan maqsadni ko'zlagan, shakllangan xarakterli kishining so'zi bilan ishi bir bo'ladi. Bordi-yu kishining so'zi boshqa-yu, ishi boshqa bo'lsa, uning sababini: yuz bergan sharoit tufaylimi, kishining tartibsizligidanmi, turmush tajribasi yo'qligidanmi, irodasizligidanmi yoki boshqa sabab bilan bog'liqligini aniqlash kerak.

**Uchinchidan:** uchinchi tamoyil - ulg'ayishni o'rganishning dinamikligi. Inson umr bo'yi o'zgarib boradi. Yosh ulgayadi. Yosh ulg'aygan sari o'zgarish, asosan, sustlashadi, kamroq seziladi, albatta jismoniy, ba'zi xollarda esa ruhiy xolatdagi o'zgarish juda jadallik bilan ro'y beradi. Ochilgan yangi ijobiy potensialdan foydalanish va muqarrarlashib borayotgan kamchilikka nisbatan o'z vaqtida chora ko'rish uchun bu

o'zgarishni ko'ra bilish o'ta muximdir. Usmir haqida yagona va bir umrga qayd etilgan fikr bo'lmasligi lozim. Afsuski, ba'zan amalda aynan tarbiyasi kiyin o'smirlarga nisbatan shunday xolga duch kelamiz.

**To'rtinchidan:** to'rtinchi prinsip tamoyil o'rganishning dialektikasidir. Pedagog o'smirning muxim asosiy sifatlariga ko'ra bilish, ularni tasodifiy, ikkinchi darajali, barxam topayotgan sifatlardan ajrata bilishi, ukuvchi shaxsidagi karama-qarshiliklarni seza bilishi xamda ularni hal kilishning pedagogik maksadga muvofik yo'llarini dasturlashtirishi lozim. Eng muxim sifatlarning rolini oshirishga yo'l ko'ymaslik kerak. Ancha sezilib turgan narsa emas, balki o'smirning kelgusida o'sishi va tarbiyasida axamiyatli, istikbolli bo'lgan narsa muximdir.

Pedagogik jihatdan o'z xoliga tashlab ko'yilgan o'smirlar orasida o'zining tor muxiti: oiladagi axloqsizlik muxiti boshka eng yaqin tevarak-atrofdagilarning salbiy ta'siriga berilgan yoki ta'sirini xali xam boshdan kechirayotganlar oz emas. Tabiiyki, bunday o'smirni kuzatib borishni boshlagan ishining eng avvalo, uning kamchiliklari kurinadi. Ularni, albatta ko'rish va bilish kerak. Birok shaxsning ijobiy, istikbolli jihatlariga kura bilishning axamiyati xam kam emas. chunki uni kayta tarbiyalashga oid barcha, ishni mana shu jihatlariga tayanib ko'rish zarur.

**Beshinchidan:** beshinchi prinsip-tamoyil o'smirlarni o'rganish doirasidan chikib, xam o'smirni urganish, xam unga tarbiyaviy nuqtai nazardan yondoshish prinsipi-tamoyili xisoblanadi. Bu pedagogik optimizm prinsipi-tamoyili bo'lib, umuman, tarbiyada juda muxim, kayta tarbiyalashda esa ikki hissa axamiyatlidir.

**Oltinchidan:** oltinchi prinsip-tamoyil o'rganish professionalizm ya'ni usmir psixologiyasini chukur bilish va uni to'g'ri tushuna bilishdan iborat. Hyech kandy ijtimoiy faoliyatda odamzodning o'z-o'ziga ishonchi tarbiya ishidagidek namoyon bo'lmaydi.

Hayot tajribasi, pedagogik praktika va usmirlar bilan muomala ularni tushunishda juda katta yordam beradi, albatta. Lekin bu psixologiya va pedagogikani chuqur o'rganish zaruriyatini sira inkor etmaydi. Ilmiy texnika revolyusiyasi asrida odamlar bilan ishlashda fakat sog'lom fikr va intuisiyaga (yaxshi) tayanib kuya kolish mumkin emas.

**Yettinchidan,** nixoyat o'rganishning yettinchi prinsip-tamoyili, maksad ko'zlaganlikdir. O'smirni o'rganish umumiy tarzda uch vazifani hal etishni ko'zda tutadi: usmirni o'kitish va tarbiyalash uchun uning eng qulay xususiyati va imkoniyatlarini aniklash, uni o'qitish va tarbiyalashda foydalanadigan vositalarning samaradorligini baholash. Usmirlar bilan olib boriladigan ishning barcha boskichlarida bu vazifalar pedagog uchun har xil ahamiyat kasb etadi. Ishning birinchi boskichi (asosan, birinchi o'kuv yilining birinchi yarmi)da o'kituvchilar o'smirlar hakida dastlabki umumiy tasavvur xosil kilib olishlari lozim. Buning uchun ular usmirlarning shaxsiy delosi, uning oilaviy turmush sharoiti va tarbiyasi bilan tanishadilar, u bilan xamda ota-onasi bilan suxbatlashadilar, uning hatti-harakatini (xulk-atvorini) kuzatadilar.

Usmirlik yoshining psixologik xususiyatlari alohida namoyon bo'lgan sharoitlarda ular «Usmirlar kompleks»i va umr bilan bog'lik bo'lgan xulq-atvor buzilishi zsa "pebertash krizis" degan nom oldi. Ushbu davrning umumiy xususiyatlari sifatida jilovlanishi kiyin bo'lgan kuvnoklikdan xafalikka va boshka turli sifatlarni dambadam o'zgarib turishini ko'rsatib o'tish joiz. Shu nuqtai nazardan usmirlik shaxs xarakterining bazasi sifatida tashvishli davr hisoblandi. Shaxsning intellektualligi, kobiliyati,

kizikishlari, dunyoqarashi va boshqa komponentlari jismoniy barkamollikka yetishganidan keyin xam davom etaveradi.

Xarakter asosan aynan usmirlik davrida shakllanib, keyinchalik favkuloddagi ta'sirlar yordamida ayrim o'zgarishlarga ega bulish mumkin. Usmirlik davriga xos bo'lgan muayyan ya'ni, o'smir xulq-atvorining, muxitning ayniksa yaqinlarining o'zaro ta'siriga bo'lgan xulq-atvor reaksiyasi xam muxim ahamiyat kasb etadi. Uziga xos bo'lgan usmirlik xulq-atvorining reaksiyalari kuyidagilarga taalluqlidir.

**1. Emansipasiya reaksiyasi.** U kattalarning qaramogidan, nazoratidan va homiyligidan ozod bo'lishga intilish, harakat qilishda namoyon buladi. Reaksiya kattalar tomonidan belgilangan tartib, koida, konun va umuman joriy qilingan «Standart» va «Qadriyat»ga karshi yo'naltiradi. «Ozod bulish» ehtiyoji mustaqil hayotga intilish bilan bogliq bulib, bu reaksiya ugil bolalarda kiz bolalarga nisbatan kuchlirok namoyon bo'ladi. Ushbu reaksiya o'smirlikning kichik va urta davrlarida sosio-psixologik omil ta'sirida kengrok tarkaladi. Psixopatiya sharoitlariga emansipasiya reaksiyasi ashaddiy ko'rinishi bo'lib, o'smirning uyidan kochib ketishida namoyon bo'ladi.

**2. Tengqurlari bilan guruhlashgan reaksiya.** Usmirlarga tengqurlari bilan guruxlarga birlashish va jiplashish -instinktlik darajasiga xos jarayondir. Odatda ikki turdagi o'smirlar guruhini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchisi, bir jinsga asoslanib, unda ashaddiy lider mavjuddir va guruhni barcha a'zolarining vazifalari, ularning guruxdagi o'rni kat'iy belgilab qo'yilgan bo'ladi. Bunday turdagi guruxda «Liderning ad'yutanti», «Antilider», «Ikki yuzlamachi» kabi rollar mavjud bo'lib. ulardan birinchisi odatda unga intellektual kobiliyatga ega bo'lmagan, lekin jismoniy kuchli bo'lgan o'smir bajaradi.

Ikkinchisi, liderning o'rnini egallashga xarakat qiladigan, uchinchisini esa u tomonga xam bu tomonga ham o'tib yuradigan o'smir amalga oshiradi. Bunday guruhning «o'z hududi» mavjud bo'lib, unga «begonalar» yaqinlashtirilmaydi. Guruhning tarkibi barkaror ravishda bo'ladi va yangi a'zolari fakatgina muayyan «sinovlar» asosida qabul kiladi.

Ikkinchi turdagi gurux esa rollarni kat'iy taksim etilmagani va unda doimiy liderning yo'qligi bilan izohlanadi. Liderning vazifalarini odatda guruhning turli a'zolari bajarilayotgan vazifaning maqsadiga muvofik bajarishlari mumkin. Guruh a'zolari ikki jins vakillaridan tashkil topadi va uning tarkibi barkaror emas, ya'ni biri ketadi, biri esa kelib ko'shiladi.

**3. Qizisish- xobbi reaksiyasi.** Usmirlik davri uchun kiziqish - xobbi o'ziga xos xususiyatni mujassamlashtiradi. Xuddi bola uchun o'yin zarur xususiyatga ega bo'lganidek o'smirning shaxs sifatida shakllanishi uchun kizikish muxim ahamiyat kasb etadi. Baxtga karshi zamonaviy psixologik adabiyotlarda ushbu muammo chukur tadqiq etilmagan. Kizikish psixologik hodisalarning alohida kategoriyasini tashkil etib, u bir tomondan mayl, boshqa tomondan ishtiyoq va xavas o'rtasida joylashadi. Kiziqishlarni biror bir tizimga joylashirish juda murakkabdir.

Bizningcha, kuyidagi tasnifni shartli ravishda kabul kilish mumkin:

**Intellektual - estetik kizikishlar** predmetga (musiq, tasviriy san'at, radiotexnika va adabiyot va h.z.) nisbatan chukur qiziqish bilan ifodalanadi. Shuningdek kashfiyot, loyixalalari xam shularga taalluqlidir. Atrofdagilar uchun bunday kizikishlar axamiyatsiz, hatto galati tuyulishi mumkin. Lekin o'smir uchun ularning ahamiyati bekiyosdir.

**Jismoniy kiziqishlarga** o'z kuchi, chidamliligi, chakkonligi va moxirligini oshirishga bo'lgan xarakatlar kiradi. Bunga shuningdek, turli jismoniy kizikishlar, avtomobil yoki motosiklni boshqarishga qiziqishlar taalluklidir.

**Liderlikka kiziqish** boshqalarga raxbarlik kilishga intilish uchun xizmat kiladigan hodisa va holatlarda namoyon bo'ladi. Bunday kizikish kuchli bo'lgan o'smirlar turli guruxlarda manfaatlarga erishish uchun to'g'ri yo'naltirilgan sharoitlarda ijtimoiy foydali faoliyat ko'rsatish mumkin.

**Yigishga kizikish** turli xildagi kolleksiyalarni yigishda namoyon bo'ladi. Har bir kolleksiya muayyan moddiy axamiyatga ega bo'lishini his kilish tufayli ushbu qiziqishning asosini moddiy farvonlikka erishishga yo'naltirilgan harakat tashkil etadi.

**Dastlabki kizikishlar.** Atrofdagilarning diqqat markazida bo'lishga turtki bo'ladi. Bu yerda eng muhimi badiiy havaskorlik yoki sport musobaqalarida katnashish yoki oxirgi modadagi kiyim vositasida o'zini namoyon kiladi.

**Jo'shkin kizikish.** Doimo, jo'shkinlikning o'ziga xosligiga asoslanadi va karta o'yin, qimor va garovga intilishda namoyon bo'ladi. Bunday yutuk albatta jozibador bo'lsa ham, lekin qaltis tavakkal kilish his-tuyg'usi muayyan lazzat baxsh etadi.

**Informasion-kommunikasion kiziqish** yangi yengil axborotlarga ega bo'lishga intilishda mavjud bo'ladi. Ushbu xobbi tasodifan uchrab qolgan suxbatdosh bilan bo'lib o'tadigan ko'p soatlik kuruq gapga moslangan suhbatda namoyon bo'ladi. Shuningdek sarguzasht detektiv filmlarni kurish orqali xam vujudga kelishi mumkin.

Shunday kilib, yukorida ta'kidlab o'tilgan o'smir reaksiyalari muayyan sharoitlarda vujudga kelib, ular o'smirlik davrining kechishida o'zining ma'lum bir xissasini ko'shadi.

## **12 -Mavzu: Shaxs rivojlanishidagi buzilishlarning psixologik xususiyatlari**

### **Reja:**

1. Shaxs rivojlanishidagi buzilishlarning psixologik xususiyatlari va davr talabi.
2. Shaxsning psixologik tuzilishi.
3. Shaxsni o'rganish murakkabligi.
4. Anomat rivojlanish va uni o'rganish.

### **Tayanch iboralar:**

Shaxs psixologik xususiyatlari, shaxsga ko'yiladigan davr talabi, shaxsning tuzilishi va uni o'rganish.

Davrimizning asosiy talablaridan biri milliy ma'naviyatni, mustaqillikni mustahkamlashni bevosita amalga oshiruvchi yetuk mutaxassis insonlarni tarbiyalashdir. Jamiyat talab qilayotgan bunday ijtimoiy ehtiyojni qondirish uchun shunday insonlarni shakllantirish, ularni tanlash va tarbiyalash yo'l-yo'riqlarini, omillarini tadkik kilish dolzarbdir.

Ma'lumki, bir jamoa yoki ijtimoiy tizim farzandi sifatida o'zida muhim xususiyat belgilar tizimini mujassamlashtirgan individ shaxsdir. Shaxsning xarakteri, temperamenti, kobiliyati ruxiy jarayonlari mehnat faoliyatida, turmushda o'zini namoyon etadi.

Demak, psixik proseslar, psixik xolatlar va psixik xususiyatlarning o'rtasidagi bog'liklik xamda atokadorlik, shaxsning psixologik tuzilishini tashkil etadi. Afsuski, biz ba'zan inson haqida fikr yuritganimizda sog'liq, kasallik va uchinchisi sogliqqa ham kasallikka ham kushilmaydigan bir holat haqida fikr yuritganimizga to'g'ri keladi.

Ayniksa, tafakkurni tekshirishda bu buzilishlar anik ko'rinadi (Zeygarnik B.V. 1962) masalan (Zeygarnik B.V.,1965) nasihatgo'ylik (Tepenipina 1965, Mansur Tochat



Gabriyal, 1973) hali muhimlashmagan aloka va sifatlarning aktualizatsiyalash (faollashtirish) tendensiyasi (Polekov 1974) lekin bularning hammasi birinchi navbatda o'zgargan shaxsiy komponentlarning ko'rinishi bo'lib xisoblanadi.. Boshqacha qilib aytganda, bu dalil muhim ahamiyat kasb etib, u hamma tipik proseslarning turlicha joylashgan, bilvosita shaxsiy motivlashgan faoliyat turlari ekanligini ifodalaydi. Yana bir umumnazariy ahamiyatga ega bo'lgan savol bu insonning biologik va sosial rivojlanishini bilishdadir. Shaxe buzilishlarining turli xil formalarini taxlil qilish bilan bu savolni yechishga yordam berish mumkin va nixoyat shaxs psixikasini buzilishi va rivojlanishining o'zaro nisbati muammosini hal qilish xam muximdir. Bu muammolar psixologiya va psixiatriya nazariyasi uchun insonning psixik faoliyatining tuzilishi spesifikasini tushunish uchun katta ahamiyatga egadir. Potopsixologiya motivlar iyerarxiyasi ularning bevosita tuzilishi, yo'nalish faoliyati, maqsadlar o'zgarishi kabi, shaxs psixologiyasiga doir ko'pgina savollar yechimiga yordam beradi. Chunonchi, potopsixologiya psixologiya ilmining bir tarmogi bo'lib, psixologiya faoliyatning buzilishlarini izlashga, ularning ichki tabiatiga kirib, bu yerdagi mavjud konuniyatlarni ajratib, me'yorda (normal) rivojlanayotgan shaxsning konuniyatlar bilan muvofiklashtirishga dav'at etadi. Lekin fakatgina faktga, (dalillar)ga tayangan holda biz kasal odamni rivojlanishi qonuniyatlaridan to'gridan-to'gri va bevosita soglom rivojlanayotgan shaxsning konuniyatlarini olib chikishimiz mumkin emas. Aksincha, potopsixologiya soxasidagi izlanishlar doimo soglom va ruhan kasal shaxsning tuzilishida dorilar borligini tafovutlaydi.

Shaxsning shakllanishi va o'zgarishlarini tekshirish ko'p kirrali va juda kiyin jarayondir. Zero, har bir psixologga shaxsning tuzilishi, uning ma'no kasb etuvchi proseslar, motiv va maqsadlarning o'zaro munosabati, shaxs rivojlanishida ularning ahamiyati nakadar kiyinligi ayon. Shu bois xam shaxsni tekshirishda shunday soxani tanlash kerakki, u umumnazariy jihatdan eng yaxshi ishlangan bo'lishi kerak. Bunday yaxshi ishlangan nazariy muammolarga motivasiya va shaxsning munosabatlari muammosi tegishlidir. Shaxs «buzilishlarini» o'rganishdagi asosiy usul eksperementdir. Agar biz shunday shaxs «buzilishiga» esa insonni - pasiyent deb atasak, u xolda eksperement vaqtida pasiyentning umumiy hatti-harakatlarini kuzatish kerak. Pasiyent topshirik yoki ko'rsatmani kandy «qabul qilishi» xam, uning shaxsiy ko'rinishlarini adekvat yoki neadekvatligi hakida guvox berilishi mumkin. Psixologik eksperent vaziyati pasiyent tomonidan uning akliy imkoniyatlarini allakandy sinovi deb idrok kilinadi. Demak, eksperement vaziyatning o'zi ma'lum munosabatlarning faollashuviga olib keladi. masalan, ayrim pasiyentlar o'zlarining xotirasining yomon ko'rsatkichidan ko'rkib, «men har doim so'zlarni yomon eslab kolardim», - deb hisobli operasiyalarni bajarish kerak bo'lgan hollarda «Arifmetikaga toqatim yo'k» - deya e'tiroz ila arz kiladilar. Har kandy vazifa eksperement vaktida shaxsiy reaksiyalarni keltirib chikarishi mumkin. Inchunun, eksperement vaziyati go'yo «taftish» xarakterlilik kasb etadi. Okibatda pasiyentni kuzatish, uning emosional kirralarini (sferasini) aniklashda o'ziga xoslikka ega.

Anomal rivojlanishni xayotiy eksperementning anik bir qismi sifatida ko'rib chiqish, laboratoriya usulidagi eksperementning natijalari bilan ularning o'zaro munosabatini topish usullarini patologiyadagi ma'lumotlarni psixologik o'zlashtirish uchun adekvat usul bo'lib hisoblanadi. Ravshanki, bu yo'lda «yoruglik» - ichki konuniyatlar fakat anomal fenomen keltirib chiqargan butun «xayotiy eksperement» rivojlanishining tahlili (analizy) orqali aniqlanish jarayonida bemorning o'ziga xos bulgan tip anik kasallik tarixi tuzilishi kerak. Tibbiyot kasallik tarixidan farkli holda bu

yerda bo'lingan ma'lumotlar emas, balki boglangan konkret klinik va eksperimental isbotlar bilan xujjatlangan, bizni qiziktirayotgan psixik xususiyatlarning namoyon bo'lishi va rivojlanishi hakidagi hakikat kayd etilishi darkor.

Demak, shaxsni anomal rivojlanishini o'rganishga bo'lgan yondashuv quyidagicha:

- a) avval bizni kiziktiradigan psixik buzilishining boshlanishi va namoyon bo'lish jarayoni;
- b) uni tashkil kiluvchi xususiyatlar;
- v) «buzilish» kechishining asosiy variatsiyalari;
- g) anomal rivojlanishining nazariy «namunasi»ni tuzish;
- d) shakllanayotgan eksperimentni kayta ishlash;
- ye) psixokorreksion, tarbiyaviy ta'sirlar majmuasini (kompleksini) qamrab oladi.

Mexnat insonni tarbiyalashda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy texnika tarakkiyoti moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi bo'lgan insonning o'zida muhim o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shunday kilib xozirgi zamon jamiyat kishisi avvalo mehnatda, jamoa ijodiy mehnatida ishtirok etish uchun shakllanadi. Biz tarbiyaning jumladan mexnat tarbiyasining barcha masalalarini emas, fakat, birinchi navbatda, tarbiyasi kiyin o'smirlarga xos bo'lgan masalalarnigina ko'zda tutamiz. Gap tarbiyasi qiyin o'smirlarning mexnat yoki axlokiy tarbiyasi xakida ketayaptimi yoki ularning tarbiyasiga oid kandaydir boshka masalalarni xat kilish xakida ketayaptimi, bunda asosiy rol ni ta'lim-tarbiyaviy ta'sirning butun kompleksi o'ynaydi. binobarin, bu o'smirlar xam obyekt xam boshka o'kuvchilar bilan teng ravishda pedagogik jarayenning ishtirokchisi hisoblanadilar. Tarbiyasi kiyin o'smirlarga pedagogik-psixologik yondashishning o'ziga xosligi pedagogik ta'sir ko'rsatishning kandaydir aloxida vositalarini (bunday aloxida vositalar yo'k) tanlashda emas, balki odatdagi pedagogik vositalarni tanlay bilishda. Birok, bunda albatta o'kuvchining individualligini, eng avvalo, uning kuchli tomonlarini, uning obru-e'tibori, shu bilan ko'zda tashlangan kamchiliklarni hisobga olish zarur.

Bu borada tarbiyasi kiyin o'smirlarni hayotga tayyorlash va kasbga yunaltirish asosiy vazifalarimizdan biridir. Bunda tarbiyasi kiyin o'smirlarni bilim saviyalarini, individual psixologik xususiyatlarini xisobga olish kerak.

**Kasbga yunaltirish** - bu xulqi og'ishgan bolalarni qizikishlari, layokatlari. kobiliyatlariga va jamiyatning turli xil kasblarga bo'lgan extiyojiga mos, ularni asoslangan kasb tanlashiga yordam beradigan maksadli faoliyatdir. U fanlararo rivojlantiruvchi nazariya va amaliyotning birligi asosida bo'lib, fakat o'kuvchilar bilan o'kuv tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shunda asosiy rolini nazariya egallaydi. Aynan shu nazariyada u yoki bu goya shakllanadi, u amaliy ishni ilmiy-amaliy ishga aylantiradi. Nazariya faoliyat kabi tez xosil bo'lib, yillar mobaynnda rivojlanadi. Kuzatishlarda va tadkikot natijasida nazariya shakllantiriladi va asosiy faoliyatni ixchamlashtirishga xizmat kiladi.

Kasbga yunaltirish nazariyasi bu kasbga yunaltirish faoliyatni samarali tashkil etishga karatilgan turli xil karashlar majmuasi, g'oyalar va tasavvurlar yig'indisidir.

Bu tushuncha takkoslab ko'rilganda sodda va umumiy. Nisbatan, mukammalrok aytadigan bo'lsak, kasbga yunaltirish nazariyasi bu ikki jarayonning bir-biriga bogligi konuniyatlari to'grisida to'lik tasavvur beradigan ilmiy bilimlarni tashkil etish shaklidir. Bu yoshlarning shaxsiy kizikishlari, layokat va kobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir.

Har bir nazariyaning rivojlanganlik darajasi faoliyat asosiga qo'yilgan tamoyillar (prinsiplar) tarkibi va sifati bilan aniklanadi. Kasbga yunaltirish prinsiplarini yaratishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- onglilik prinsipi;
- mos kelish prinsipi (shaxs kizikishlari, konuniyatlari bilan jamiyat uchun zarur kasblarga bo'lgan ehtiyojning moye kelishi);
- kasb tanlashda faollik prinsipi;
- rivojlantirish prinsipi (bu prinsipda shunday goya aks etadiki, tanlagan kasbi shaxsning rivojlanishini, maxoratini oshirish uchun xizmat kilishi kerak) Shuningdek, kasbga yo'naltirishda prinsiplar guruhi ham borki, u umumpedagogik prinsiplar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Bular quyidagi prinsiplar:

- kasbga yunaltirishning xayot bilan, mehnat bilan, amaliyot bilan bogligi;
- kasbga yo'naltirishning o'smir, yoshlarning mehnat tayyorgarligi bilan bogligi prinsipi - mehnat ta'lim va tarbiyasining yaxshi yo'lga qo'yilishi, bunda o'kuvchi o'smirlarning texnikaviy ijodkorligini tashkil etish va o'kuvchilarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatidan moxirlik bilan foydalanish kerak. Mehnat tayyorgarligidan ayrim xolda kasbga yunaltirish mavxumlik kasb etadi, amaliyotdan ajralib kolgan xamda shaxening mehnati va kasbiy tiklanishining umumiy vazifalarini bajarishiga to'sqinlik paydo bo'ladi.

- kasbga yunaltirishning tizimligi va uzviyligi prinsipi. Kasbga yo'naltirishning uzviyligini ta'minlaydi: kasbga yunaltirishda maktab, oila, otalik tashkilot, kasb-hunar kolleji va jamoatchilikning o'zaro aloqadorligi. prinsipi, yoshlarning kasb tanlashlariga, xamkorlikda yordam berishni ko'zda tutadi. Bunda maksadli va muvofikashtiruvchi faoliyatni xamkorlikda amalga oshirish imkonini beradi;

- kasbga yo'naltirishning tarbiyaviy xarakteri shundaki, u garmonik, barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishda goyaviy-siyosiy, mehnat, iktisodiy, axloqiy, estetik, hukuqiy va jismoniy tarbiyalarni birgalikda olib borishni takozo kiladi. - kasbga yunaltirish ishlarini amalga oshirishda diagnostik (tashxis) va tarbiyaviy yondashuvnint o'zaro aloqadorligi - bu prinsip bir yondashuvning ikkinchi yondashuvga qarama-karshi qo'yilishiga yo'l qo'ymaydi.

Kasbga yunaltirishning metodologiyasi kasbni ongli ravishda mustakil tanlash bo'yicha ilmiy muammo, tadkikot metodlarining tuzilishi asosiy yo'l-yo'riklari to'grisidagi ta'limot bo'lib, bunda yoshlar kiziqishlarini aniklab, ularga ilmiy yordam berish xamda jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojini hisobga olish asosida amalga oshishi tushuniladi.

Kasblar to'grisida axborot berish o'kuvchilarni turli xil mehnat turlari bilan kasblar shajarasi, kasblarning o'ziga xos xususiyatlari, xalk xujaligining kasblarga bo'lgan ehtiyojlari, jumladan, ular yashayotgan hududning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari, eng yakin joylashgan kasb-xunar kollejlari va ularda tayyorlanadigan mutaxassisliklar tavsifi bilan tanishtirishdir. Kasblar xakida tartibsiz ma'lumot bermaslik uchun (dunyoda 40 mingdan ortik kasblar mavjud) o'quvchilar oladigan bilimlarni ma'lum bir tizimga solish lozim. Kasblar xakida axborot berish o'kuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi lozim.

Tarbiyasi kiyin o'smir o'kuvchilarni aniklash, ular bilan shaxsan tanishish va individual tarzda kasbga yo'llash ishni olib borishdan iborat bo'ladi. Maktabni bitiruvchilar orasidan kelgusidagi qalbiga befark yoki unga salbiy munosabatda bo'ladigan, lekin ularni ma'lum bilim yurtiga yuborish mumkin deb taxminlashga asos bo'lgan o'smirlarni belgilab olish juda muhimdir. Birinchidan, ularning bilim yurtiga

kirishga kanday karashlarini asoslirok kilib aniklab olish kerak: ikkinchidan mumkin kadar ularni kiziktirgan kasb urgatiladigan joyga kirishlariga yordam berish: uchinchidan, agar buning imkoni bo'lmasa, ularni boshka kasb bilan asosli ravishda tanishtirish, uning juda kizikarli tomonlarini ochish. bunday ukuvchilarga kelgusi o'kish jarayonida xam aloxida e'tibor berib borish zarur.

### **13-Mavzu: Xarakter aksentuasiyasi va uning tiplari**

#### **Reja:**

1. Xarakter aksentuasiyasi va uning tiplari hakida tushuncha.
2. Xarakter aksentuasiyasi.
3. Xarakter tiplari.
4. Aksentuasiya tiplari xususiyatlari.

#### **Tayanch iboralar:**

xarakter aksentuasiyasi va tiplari, emansipasiya, xobbi, reaksiyalari va uning xususiyatlari. tarbiyaga individual yondoshish, tarbiyasi kiyin o'smirni kayta tarbiyalash, mexnatni mazmunini akd bilan boyitish. o'smirlikning utish davri. usmirlik davridagi deviant (ogish) xulk-atvor. deviant xulk-atvor mexanizmalari.

Ma'lumki keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda usmirlar orasida uydan ketib kolish. ya'ni daydilik ommaviy tarzda ro'y bermokda. Shu bilan birga sosial hatti-xarakatlar, agressivlik, beshafkatlik. alkogolizm muammolari ko'rina boshlandi. Zero, oilada, o'kuv guruxida. ishlab chikarishda, urtoklar doirasida, «kiyin» xarakterli shaxs uchrasa, bu holat kanday oqibatlariga olib kelishi xammaga ayon. Psixologlarning aniklashicha, xarakterning yangi sifatlari yuzaga kelish va kiyinchilik ularning mustahkamlanishi real vaziyatni takozo etadi. Shuning uchun hatti-harakat odatni, odat esa xarakterni va xarakter takdirni yaratadi, degan fikr mavjud. Xarakter kandaydir turgun va o'zgarimas narsa emas. O'smirlik yeshida xarakterning xususiyatlari odatda «jiddiylashish», «boshqacha bo'lib kolish» tarzida ko'rinadiki, bu hol ijtimoiy omillardan, ya'ni atrofdagilarga nisbatning murakkablashuvidan, jinsiy yetilish asosida o'zgarishlarlan kelib chikadi. Xarakterdagi o'zgarishlarni yetarlicha xisobga olmaslik ziddiyatli va nizoli munosabatlarni vujudga keltiradi. Shaxsning xakteri jismoniy yetuklik darajasiga yetgandan so'ng xam shakllanishda davom etadi. Birok shaxs xarakterining negizi o'smirlik yoshidan tarkib topadi. Ayni shu davrda uning xarakterida aksentuasiya tiplari xususiyatlari, jumladan emonsipasiya reaksiyasi tengkurlari bilan chukurlanshsh reaksiyasi, ishtiyiq reaksiyasi (xobbi- reaksiya) va seksual mayl shakllanishidagi reaksiyalar ustuvorlik kiladi.

Odatda aksentuasiya xakterning shakllanish davrida rivojlanib, yosh ulgayishi bilan «silliklashib» boradi. Aksentuasiya xarakter xususiyatlari har doim xam ifodalanmasdan balki ayrim vaziyatlarda, ma'lum shart-sharoitlarda yuzaga chikishi mumkin. Odatdagi sharoitda ifodalanmaydi, chunki unda ijtimoiy adaptasiya yo umuman bo'lmaydi yoki kiska vakt muddatli bo'ladi. Xarakter aksentuasiyasining tiplari kisman psixopatiya tiplariga o'xshash ammo ularni bir-biridan ajratib turuvchi muhim belgilari xam bor. Psixopatiyada dekompensasiy, o'tkir affektiv va psixopatik reaksiyalar, ijtimoiy dezadaptasiya xoxlagan ruxiy jaroxat turli kiyin vaziyatlarga, xar xil sabablarga hattoki sezilmas asoslarga nisbatan paydo bo'ladi.

Aksentuasiyalarda «buzilish»lar faqat ma'lum turdagi ruxiy shikastlanishlarda, ayrim kiyin vaziyatlarda, xususan ushbu tipning «eng kam karshilik kiluvchi joyiga», ya'ni «kuchsiz zvenosiga» karatilganda yuzaga chikadi. Yoinki, xar bir atentuasiya tipini

o'ziga xos «zaif joyi» mavjud yukoridagi fikrlar asosida xarakter aksentuasiyasiga kuyidagicha ta'rif berish mumkin.

**Xarakter aksentuasiyasi** - bu me'yorning eng oxirgi varianti bulib, bunda xarakterning aloxida belgilari juda kuchayib ketadi. Buning natijasida ma'lum turdagi psixogen ta'sirlarga nisbatan «tanlovchi zaiflik» yuzaga chikadi. Boshkacha psixogen ta'sirlarga yaxshi va xatto yukori chidamlilik saklanib koladi. Xarakter aksentuasiyasi me'yorining eng so'ngisiga qarab, xarakter aksentuasiyasining ikki darajasi ajratiladi: aniklik va yashirin (A.Ye.Lichko, L.A.Aleksandrov, 1973).

**Anik aksentuasiya** - me'yorning eng sunggi variantiga tegishli. U doimiy bo'lgan ma'lum bir xarakter tipi belgilarini aks etishi bilan ifodatanadi. Aksentuasiyaning bu darajasi o'smirning yakinlaridan to'plagan ma'lumot tengdoshlari orasidagi kuzatish. diagnostik so'roknoma aniklanadi. Ammo ma'lum tip belgilarining ifodalanganligi ijtimoiy adaptasiyaga tusik bo'la olmaydi. O'smir yosh davrida xarakter xususiyatlari utkirlashadi, karshiligi eng kam bulgan xususiyat sifatida yo'nalgan psixogen omillar ta'sirida adaptasiyaning vaktincha buzilishi xulk-atvorda «og'ishlar» bo'lishi mumkin. Lekin keyinchalik kompensasiya kilinib, odatda adaptasiyaga xalal bermaydi.

**Yashirin aksentuasiya** - bu me'yorning eng oxirgi varianta emas, balki me'yorning odatdagi variantiga tegishlidir. Odatdagi o'rganilgan sharoitda ma'lum bir xarakter tipi kuchsiz yoki umuman ifodalanmagan bo'ladi. Hatto uzok vakt davomida o'smir kuzatilganda xam har tomonlama o'zaro munosobatlarda xam uning tarjimayi holi bilan tanilganda xam xarakterning ma'lum tapini aytish kiyindir. Ammo ushbu tip oyelgilari «eng kam karshilik ko'rsatuvchi joyga» yukori talablar ko'yilgan vaziyat va ruxiy shikastlar ta'siri ostida kutilmaganda yorokin yuzaga chiqishi kuzatiladi. Bu ikki aksentuasiya darajasi turli omillar ta'sirida bir-biriga o'tib turishi mumkin: Bu omillar ichida oila tarbiyasining xususiyatlari. ijtimoiy muhit, kasbiy faoliyat. jismonan soglik muxim rol o'ynaydi.

A.Ye.Lichko 2 ta aksentuasiya tipini ajratadi. Bundan tashkari 14 aralash variantlarini ko'rsatadi. Har bir tipni aniklashda fakat xarakterologik xususiyatlar emas, balki klinik belgilar, jumladan nevropatiya, markaziy asab tizimining anorganik shikastlanishi, fazasi affektiv buzilishlari xam kuzatiladi. A.Ye.Lichko xam aksentuasiya xarakterning vaktincha o'zgarishi degan fikrda qoladi. Shu bilan birga ulardan ayrimlari psixik kasalliklarga utadi yoki butun umr saklanishini kayd etadi. Aksentuasiyaning kelib chikishida notugri tarbiyaning o'rni aloxida ta'kidlanadi. Xarakter aksentuasiyasi tiplari kuyidagilardan iborat:

**Gireptim-tip** - bolaligidanok sho'x, to'polonchi, mustakil, jasur, o'ta eksravert unda kattalarga nisbatan distansiya xissi yetishmaydi. Doimo liderlikka da'vogar, tavakkalchilikni yoktiradi. Garchi yaxshi qobiliyat egasi bo'lsalarda xafasizliklari, tez chalgishlari, intizomsizliklari sababli notekis o'qishadi. Ularda odatda ko'tarinki kayfiyat o'z kobiliyat va imkoniyatlariga ortiqcha baho berish, lekin konun va koidalarga yengil qarash hollari uchraidi.

**Sikloid tip** - bolaligida tengdoshlaridan fark qilmaydi. Pubertat davriga kelib subdopressiv faza paydo bo'lishi mumkin. Natijada kuchsiz, biror ishga kul urgisi kelmasligi tufayli o'kishda xam kiynala boshlaydilar. Jamoat ishlaridan bosh tortadilar, yolgizlikni afzal ko'radilar. Agar bu vaktida jiddiy jazolar, obro'sini to'kishlar yuzaga kelsa, o'tkir affektiv reaksiya, sunisidal urinishlar xam goxo uchraydi. Lekin ko'tarilish fazasida o'zlarini gipertim tipi kabi tutadilar. Qiziqishlar beqaror. Delinkventlik (qonunbuzarlikka mayillik), uydan kochish ularga xos emas.

**Labil-sikolid** - Oraliq tip bo'lib, ularda ko'tarilish va tushish fazalari kiska, turli davrda yaxshi va yomon kayfiyat fazasi urin almashi bilan tavsiflanadi.

Labil tip- asosiy belgisi sezilmas sabablarga kura kayfiyat tez-tez va sekin o'zgaradi. Bu tipning «Zaif zvenosi» emosional ahamiyatli bo'lgan shaxslar tomonidan inkor kilinishi va yaqinlarini yo'kotishdir. Vaziyatga karab kayfiyat keskin uzgaradi.

**Astenonevrotik tip** - (psixopologiya xastalik) bolaligida kupincha nevropatiya belgilari ko'zga tashlanadi. Jumladan, yomon uyqu va ishtaha, injiklik. ko'rkoklik, yiglokilik, duduklanishi, tungi enurez va xokazo.

*Asosiy belgilari:* tolikish, ta'sirchanlik, akliy, jismoniy emosional zo'rikish. Usmir rejalarini amalga oshirib bulmasligini, uning real emasligini bilganda kuchli buzilish vujudga keladi.

**Senzitiv tip** - (sezish) bolaligidan ko'rkok, xavfsirashlik, xarakatchan o'yinlarni va sho'xlikni yoktirmaydi. Begonalar va notanish sharoit oldida kuchsiz va tortinchok. Ular fakat ko'nikib kolgan odamga nisbatan ochik mulokatda bo'lishadi. Ota-onasiga boglanib koladilar. Mo'min kobil, imtihon, yozma ishlardan, doska oldida javob berishdan ko'rkadi, uyaladi. Ayblash va jazo ularni yiglatadi. Burch xissi erta uygonadi. Delinkoventlikka moyilik yo'k. «Zaif zvenosi» obrusiga soya tushsa, nohak ayblashsa, ustidan gumon kilishsa, shaxsiy mukammal emaslik xissining kuchsizliga bilan tavsiflanadi.

**Psixotenik tip** - bolaligida erta fikr yuritish va yoshiga xos bo'lmagan «intelektual» kizikish bilan tavsiflanadi. Notanish odamlardan predmetlardan, korongulikdan ko'rqishadi.

*Asosiy belgilari:* kat'iyatsizlik, xar xil o'y fikrlar yuritishga moyillik, xamma narsadan xavfsirash, o'z-o'zining taxlil kilishni, sevish turli irimlarga e'tibor berishda ifodalanadi.

**Shizoid tip** - bolaligidan yolg'iz o'ynashni yaxshi ko'radi. Tengdoshlariga intilmaydi. Kattalar davrasida bo'lishni afzal ko'radi. Uzlarining «dunyolari» bilan yashashadi. Ularning ichki dunyosi boshkalar uchun yopik. Delinkvent xulk-atvori juda kam uchraydi. «Zaif zvenosi» - tez norasmiy aloqa o'rnatish, uning intim, ichki fantaziyasiga kupol tarzda kirish.

**Epjeptiod tip** - bunday bola soatlab ovunmay yiglashi. savollarga javob bermasligi mumkin, ular xayvonlarni kiynashadi, o'zidan kichiklarni jig'iga tegishi kuzatiladi. Kiyimlari va o'yinchoqlarini bolalarga xos bo'lmagan xolda avaylaydilar. *Bu tip belgilari:* asosan usmir yoshida yuzaga chiqadi.

*Asosiy belgilari:* to'planib boruvchi alamli, g'amgin kayfiyat olamini olishi mumkin bo'lgan obyektini izlash. Affektiv porlash uchun axamiyatsiz sabab so'ngi tomchi asos bo'la oladi. Qimor o'yinlarini yoktiradi. Ota-onasidan fakat erkinlikni emas, mulkka, moddiy ne'matlarga ham o'z ulushini talab kiladi. Delinkvent.

**Isteroid tip** - asosiy belgilari: egasentriзм-markazlashgan. o'ziga e'tiborni karatish. uning oldida boshqalarni maktab bo'lmaydi. O'zini ko'rsatish uchun delinkvent xatti-xarakatlar kilishi mumkin. Tashkaridan effektli ko'rinsa ham. o'ziga atrofdegilarning dikkatini karatishga xarakat kiladi. Bunda real vokeilikning baxosini o'z foydasi uchun ko'radi. Demonstrativ hatti-harakatga ega.

**Bekaror tip** - bolaligidan «kuloksiz» bo'lishadi, sust xarakatli, chukur qizikishlari yo'k. boshkalar ta'siriga beriladi. Mayda o'girlikka oson ko'l uradilar. Ko'ngilxushliklarni yoktiradilar, mexnatga kizikishmaydi.

**Konform tip** - asosiy belgisi «xamma kabi o'yla», «xamma kabi ish tut». Yemon muhitga tushib qolishsa, shu muhitning barcha xususiyatlarini o'zlashtirib olishadi.

Tanqidiylik yo'q. Yangilikka tez moslasha olmaydi. «Zaif zvenolari» - keskin o'zgarish, xayotiy stereotipning buzilishi.

Aksentuasiyalashgan o'smirlar bilan psixoprofilaktik usullar, avvalo ularning aksentuasiyasi tipiga bog'lik holda u uchun eng optimal sharoit yaratish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda aksentuasiyaning xar bir tipi uchun shikastlovchi psixogen ta'sirni ajratadi. Xulk-atvor profilaktikasi psixolog o'kituvchi, ota-onaning birgalikdagi ishidir. Asosiy maksad ruxiy shikastlovchi sharoitlarga nisbatan asab tizimining chidamliligini tarbiyalashdir. Bularga to'g'ri tashkil etilgan akliy mexnat, dam olish, asab buzilishining asosiy jarayonlarini mashklantirish kiradi. Ularning individual-psixologik xususiyatlarini xisobga olgan xolda shaxsiy yondoshish, uning ruxiyatini himoya qilish asrash prinsiplariga asoslanishi lozim.

Usmir o'kuv yurtiga kelgach, deyarli birinchi kunidanok tula ma'noda ishlab chikarish mexnatiga kirishib ketmasada, uning muhitiga butunlay sho'ngib ketadi. Bu o'kuvchining ahlokiy jihatidan o'sishiga ayniksa katta ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chikarish mexnatidan ishtirok etishni endigina boshlagan o'smirning xayajonini lo'nda va shu bilan birga chukurrok ifodalab berish kiyin. Unumli mehnatda katnashish tarbiyasi kiyin o'smirni kayta tarbiyalashga oid bir kator muhim masalalarni xal etish mumkin:

1. Uning xudbinligi va jamoadan ajralganligiga barham berish, uning sosial-ijtimoiy, haq-hukuki, o'ziga jamoadagi o'rniga ishonchi ortishiga imkon berish: buning uchun o'smirlar kar doim o'zaro bog'lik va ma'lumotli bo'lgan ish sharoitida ishlashi, xar kimning jamoa mehnatidagi roli va urni anik belgilanishi, xar bir kishining ishiga o'z vaqtida yakun yasalishi va baho berilishi lozim.

2. Mexnatga ijodiy munosabatini shakllantirish, buning uchun o'smir boshidan boshlabok topshirikni passiv bajaruvchi emas, balki uni texnologik ishlashda katnashuvchi, ishlab chikarish jarayonining fikr yurituvchi, subyekta, uning xar bir qismini yaxshi anglab yetuvchi bo'lishi kerak.

3. Uzini tuta bilish va kat'iyatlikni tarbiyalash bu fakat ishlab chikarish topshirigi intellektual va jismoniy tartibdagi bir kancha kiyinchiliklarni yengib o'tishni talab etgan xoldagina mumkin, buning uchun kiyinlik me'yorini asta-sekin va juda extiyotkorlik bilan oshirib yuborish, o'smirga bu kiyinlikning paydo bo'lish sababini va uni bartaraf etish yo'llarini tushuntirish kerak.

Ishda betartiblikning tarbiyalanishiga yordam berishi; shuning uchun ish o'rni tartiblilik namunasi bo'lishi; o'kuvchilar ishlaydigan xona esa texnik estetikaning oddiy talablariga sal bo'lsa-da, muvofiq kelishi lozim; o'kuvchilardan topshirikni fakat anik emas, balki chiroyli bajarishni talab etuvchi ishlab chikarish usta-masterlari to'g'ri ish tugadilar. Mexnatni intellektual mazmun bilan boyitish, ijtimoiy jihatdan xam, intellektual jihatdan xam mehnatning o'ta ongli xarakterda bo'lishini ta'minlash muxim axamiyatga ega. Shu bilan bog'lik ravishda master-usta bilan moxir va umumiy ta'lim predmetlari ukuvchilari urtasidagi aloqaning muxim axamiyatga aloxida e'tibor berish zarur. Shu aloka asosida nazariy oilimlarni kullash ta'minlanadn, ularning xakikat chinligiga ishonch shakllanadi, amaliy ma'noda o'kuvchilarda texnik ijodga kizikish tarbiyalanadi.

Mexnatga munosabatiga karab, tarbiyasi kiyin o'smirlarni ikki guruxga bo'lish mumkin: mexnatga umuman ongli, ijodiy yondashadigan o'smirlar xamda ta'sir natijasida durustgina ijrochi bulib koladigan. biroq mexnatga yuzaki qaraydigan, mehnat jarayoniga kirishib ketmaydigan. unga ijodkorlik elementlarini kushmaydigan usmirlar guruxda xar ikki guruhn bir umumiy psixologik xususiyat birlashtiradi; Ular mexnatda anik maksadni xamda o'z mehnat natijalarini ko'radilar, o'zlarini jamoaga foydati

ekanliklarini anglyadilar (agarda nazariy va amaliy mashgulotlar ularning prosessionat faoliyati bilan chambarchas boglamasa bularni ular ko'z oldilariga keltira olmaydilar va xis qilmaydilar). Bu masalalarni xal etishning muxim metodik yo'llari: o'quvsizlik yoki ma'lumotsizliklari tufayli yuz bergan zarar nimaga tengligini yakkol anglab yetishlari uchun ishlab chikarish iktisodiyoti bilan tanish bulishlari lozim.

Shu sababdan aloxida ta'kidlab o'tamizki, bunday o'kuvchilar bilan olib boriladigan ish eng tajribali, eng ijodkor, uz ishga va pedagogik burchiga eng sodik ishlab chikarish ta'limi ustasiga topshirilishi lozim. Bunda ukuv ishlab chikarish gururning soglom o'smirlar jamoasiga bir necha tarbiyasi ogir o'smirlar biriktirilsa, maksimat darajada muvaffakiyatga erishish va pedagogik kasb-hunarni egallashga mexnatga psixologik jihatdan tayyorlanadi.

#### **14-Mavzu: Tadqiqot metodikasi va natijalarni qayta ishlash**

##### **Reja:**

1. Tadqiqot metodikasi xakida tushuncha.
2. Tadqiqot natijatarini kayta ishlash.
3. Tadqiqot natijatarini baholash.

**Tayanch iboralar:** tadqiqot metodikasi, tadqiqot natijatari, kayta ishlash. gipertim, sikloid, senzitiv, lobel, psixoostenik. shizoid, paropoyal, bekaror. konform va bosh katar.

So'roklagich 14-18 yoshlardagi usmirlarda aksentuasiyasi va psixopatiyasini aniklashga mo'ljallangan.

PDS (patoxarakterologik diagnostik so'roknoma) ning bu patologik xarakter bilan me'yorning eng oxirgi variantini aniqlashda diagnoz ko'yish uchun yordamchi usul bula olmaydi. So'roknomada 25 ta jadvatlar tuplami bor («O'zini his qilish», «Kayfiyat» va xokazo).

Har bir to'plamda 10 tadan 19 tagacha taklif kilingan jadvallar bor. O'smir bilan 2 ta tadqiqot o'tkaziladi. Birinchi tadqiqotda o'smirga har bir jadval to'plamidan uncha ko'p mos keladigan javobni tanlab va №1 kayd kilish varag'iga moye rakamni ko'yish taklif etiladi. Agar biror bir to'plamda bir emas bir kancha javoblar mos kelsa, 2-3 ta tanlashga ruhsat beriladi. Bitta jadvalda 3 tadan ortik tanlashga ruhsat berilmaydi. Turli jadvallarda ularni soni turlicha bo'lishi mumkin.

Ikkinchi tadqiqotda xuddi o'sha to'plamidan eng kup mos kelmaydigan inkor kilinuvchi javoblarni tanlashva №2 kayd kilish varag'iga mos rakamni ko'yish taklif etiladi. Ikkala tadqiqot xam aloxida jadval tuplamida o'smir javob berishdan bosh tortishi mumkin. Agar bunday bosh tortishning soni ikkala tadqiqotda 7 va undan yukori bo'lsa, u xolda bu o'smir o'zining ancha yuqori bo'lmagan intellekti tufayli suroknoma bilan ishlash kiyinligidan yoki yetarli darajada intelektga ega bulib, tadqiqotchiga negativ munosabatda ekanligidan dalolat beradi.

Odatda xar bir tadqiqotni o'tkazish uchun yarim soatdan bir soatgacha vakt ketadi. Tadqiqotni bir vaktida o'zida uncha katta bo'lmagan sinaluvchilar guruxi bilan o'tkazish mumkin, lekin bunda ular bir-birlari bilan maslahatlashmasliklari va bir-birlarini javob varakalarini kura olmasliklari kerak.

Subyektiv baholashda ikkalasi bo'yicha natijatarni kayta ishlash, bu ikkala sinaluvchi o'zini kaysi tipga kiritishi va o'zida qaysi tip belgilarini inkor etish uchun mo'ljallangan (SSh - subyektiv shkala) xar bir xarakter tipi uchun xavfli ramziy belgilash kiritilgan.



## M-melonxolik

- Sh - shizoid
- G - gipertim
- R - paropoyal
- S - sikloid
- E - esilekptoid
- L - lobel (emosional lobel)
- B - bekaror
- S - senzitiv
- K - konform
- P - psixoastenik

Ochik kolgan joy ushbu tanlovni noinformativligini bildiradi. Har bir xavfli ramziy belgi mos tip foydasiga 1 ballga teng, lekin birinchi tadkikotda + 1 belgisi bilan, ikkinchi tadkikotdatda esa - 1 belgisi bilan belgilanadi. Agar biror bir tip foydasiga algebraik yigindisi + 7 yoki undan yuqori bo'lsa, u xolda o'smir o'zini bu tipga kiritishi to'grisida xulosa kilishi mumkin. Agar biror bir tip foydasiga algebraik yigindisi -7 -8 yoki katta manfiy kattalikni tashkil qilsa, u xolda bu tip belgilari anik inkor etilishdan dalolat beradi.

Bundan tashkari obyektiv baxolash shkalasi kuyidagi ko'shimcha ko'rsatkichlarni aniklash imkoniyatini beradi:

- D - xarakter belgilarining dissimulyasiya ko'rsatkichi;
- T - ochiklik ko'rsatkichi;
- V - organik psixopatiyaga xos bo'lgan xarakter belgilari ko'rsatkichi;
- Ye - o'zini baxolashdagi emonsipasiyaga reaksiyasini aks etish darajasi;
- Har bir xavfli ramziy belgi uchun ushbu tip yoki ko'shimcha ko'rsatkich foydasiga 1 ball beriladi.

Subyektiv shkala bo'yicha kuyidagi tiplar belgilashi baholash uchun (+ 7 undan yukori) obyektiv baxolash shkalasi bo'yicha beriladi.

- A A ga 1 ball
- S S ga 2 ball
- Sh Sh ga 1 ball
- P P ga 1 ball
- Sh Sh ga 1 ball
- R Sh ga 1 ball

Kuyidagi tiplarni belgilash anik inkori uchun (-7 va yukori inkor kattaligi)

- g sshe ga 2 ball
- P B ga 1 ball
- K I ga 2 ball
- Sh ga 1 ball

Uzini baxolashga ambivalentligi uchun (barcha tipga nisbatan yoki subyektiv baholash shkala bo'yicha bir vaktida + 7 va - 7 dan kam bo'lmagan ) Sh ga 1 ball. Tanlashdagi xar bir xato uchun bitta tanlov rakami tadkikotlarda xam 1 mavzuga) ega xar bir xato uchun 1 baldan.

Xarakter belgilarini dissimulyasiyasiga mumkin bo'lgan moyilligini aniklash.

Grafikni baxolash buni aniklashdan boshlanadi. Agar D ko'rsatkichi T ko'rsatkichidan 4 baldan ko'p bo'lmagan xolda ortikcha bulsa, ya'ni  $D-T=4$  xarakter belgilarining mumkin bo'lgan dissimulyasiyasi xakida gapirish mumkin. Har bir tip va kushimcha kursatkichlar foydasiga ballardan xisoblab bo'lingandan sung tiplarni diagnostikasi kuyidagi soidalar asosida olib boriladi.

O - koida. Agar obyektiv baxolash shkalasi bo'yicha minimal diagnostik son (MDS) xech bir tipga nisbatan yetmasa, tip noanik deb xisoblanadi.

MDS turli tiplar uchun bir xil emas va kuyidagiga teng

DS 7 6 5 6 7 5 6 7 8

Tiplar GSLSP ShE BK

1-koida. Agar MDS ga ega bo'linsa yoki bitta tipga nisbatan yukori bulsa. u xolda ushbu tip diagnostika kilinadi. (2 va-3 koidalarda ko'rsatilgan xollardan tashkari).

2-koida. Agar dissimulyasiya mumkinligi ( $D-T=4$ ) konstasiya kilinsa, u xolda I va K ular foydasiga to'plangan ballar soni dan katiy nazar diagnostika qilinmaydi.

3-koida. Agar emonsipasiya reaksiyasi ( $Ye > 4$ ) kuchli ifodalangan bulsa, u xolda S va P tiplari foydasiga kancha ball to'planganidan qat'iy nazar diagnoz kilinadi.

4-qoida. Agar MDS K tipida va boshka tiplarga nisbatan egallangan yoki oshgan bo'lsa, u xolda K tipi foydasiga kancha ball to'plangan ligi dan katiy nazar diagnostika kilinmaydi.

5-koida. Agar 2,3,4 koidalarga moye xolda mustasno etilgandan sush MDS 2 tipga nisbatan egallangan yoki oshganbo'lsa.

a) kuyidagi mos birliklardan aralash tip diagnostikakilinadi.

GISL LA SP GGSh ShE EB EI

30GI LS SSh ShI IB

GB LI ShB AB (6-koida bundan mustasno).

b) mos kelmaydigan deb topilgan boshka birliklarda 2 ta tipdagi kaysi birining foydasiga MDS ballari eng yukori bo'lsa, o'shatip diagnostika kilinadi.

v) agar 2 ta moye kelmaydigan tiplarda ballar soni ular MDS dan oshik bulsa, ularni 2 si MDS ga yetgan bulsa. U holda ulardan birini chikarib tanlash uchun ustunlikning kuyidagi

prinsipga asoslanadi.

(tenglik belgisidan keyin turuvni tip belgisi koladi.)

$G+L=G$	$I+A=A$	$L+P=P$
$G+L=A$	$S + OS$	$L+Sh=Sh$
$G+S=G$	$S+P=P$	$L+E=E$
$g+p=ps+sh=sh$	$p+e=e$	
$G+E=Sh$	$S+E=E$	
$g+sh=sh$	$s+e=e$	$p+i=i$
$G+E=Sh$	$S+B=B$	$P+B=B$
$A+A=Sh$	$S+B=B$	
$A+E=E$	$S+E=E$	

S+I=I S+B=B

Bu metodika medisina psixologiyasida usmirlar bilan klinik ishlarida juda yaxshi yordam beradi. Ammo metodikasni ommaviy maktablarda amaliy maksadlarda ishlatishda ehtiyoj bo'lishi lozim. Xususan tarbiyasi qiyin o'smir bilan «aksentuasiyalashgan» usmirlarni bir narsa deb karash mumkin emas.

G.A.Istrina olgan ma'lumotlar buning isbotidir. Uning fikricha ommaviy maktablardagi tarbiyasi qiyin o'smirlar ichida aksentuapiyalashganlari boshkalari orasida ko'p uchraydi. Bundan xarakterning psixologik xususiyatlari maktabdagi qiyinchiliklarni bevosita asosi bo'lishi mumkin emas.

Ommaviy xodisa sifatida kurib chikiladigan deviant xulk-atvor jamiyatda yuz beradigan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ruhiy jarayonlar bilan o'zaro chambarchas bog'likdir. Ba'zi xollarda jamiyatdagi jarayonlar deviant xulk-atvor u yoki bu turining paydo o'lishi, kengayishi yoki yo'qolib ketishiga sababchi bo'lsa, boshqasida okibat bo'lib kolishi mumkin. Ba'zan bu o'zaro bog'liklar shu darajada mustaxkam bo'ladiki, jamiyat xayotdagi o'zgarishlar xulk-atvor sababimi yo oqibatimi yoki uning tarkibiy kismi ekanligini anik aytib bo'lmaydi. Har holda ularni jamiyat hayotining ijtimoiy chikishlar bilan to'gridan-to'gri aloqada bo'ladigan qismi sifatida ko'rib chikish mumkin.

Mos ijtimoiy sharoitlarda maxsus ommaviylikning saklanib kolishi tarkalish xususiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy me'yorlarning buzilishiga Deviant xulk-atvor deyish mumkin.

Deviant xulk-atvor uchun eng muxim xususiyatlardan biri ularning kanchalik foydali yoki zararlilik darajasini aniklash muxim axamiyatga ega. Ijtimoiy me'yorlarning xar bir o'zgarishda jamiyat fikri keskin o'zgaradi; yangi karashlar va xulk-atvor shakllarining tarafdorlari va u i ga karshi turuvchilar paydo bo'ladi: bir vaqtning o'zida o'z ta'sirini yo'kotayotgan me'yor o'rniga yangi me'yor paydo bo'ladi. Oila nikoh munosabatlarida er-xotinning do'stligi, o'rtoqligi, sevgisi, bir-birini moddiy yoki boshqa tomonlardan karam bo'lmasligi me'yordir. Bunda xisob-kitob bilan oila kurish, mansab uchun ajralish deviant xulk-atvor bo'ladi. Deviant xulk-atvor ikki xil darajada o'rganiladi. Individual va ommaviy. Individual darajada ma'lum bir kishining aniq bir ish kilishi ommaviy darajada shu turdagi hodisalar majmui, ijtimoiy me'yorning buzilishlari, tizimi xakida so'z boradi. Har bir ijtimoiy me'yor va undan chekinish, ijtimoiy guruxlar tomonidan xar xil baholansada, ijtimoiy rivojlanish nuktai nazaridan ijtimoiy me'yorlarning baxolar yo'nalishi bir xil ko'rsatkichga ega.

Deviant xulk-atvor, xolati va darajasi turli mamlakatlar regionlar, xududiy birliklarda turlichadir. Deviant xulk-atvor turlari taksimoti ularning hududiy kesimdagi sifat va mikdoriy tavsifi moye xulq-atvorning geografiyasini tashkil etadi.

Bunda ko'rib chiqilayotgan xudud tuzilishi va dinamikasi deviant xulk-atvorning sifat ko'rsatkichi bo'ladi. Tuzilishi deganda mavjud xudud ichidagi xar xil chekinishlar, jinoyatchilik, boshqa konun buzilishlar, ichkilikbozliklar, ma'naviyatsizlik va hokazolar orasidagi munosabatlar tushiniladi. Bu munosabatlar foizlar va umumiy ko'rsatkichlarda aks etadi. Ilquningdek, bu ko'rsatkich ro'yxatga olingan xulk-atvor hodisalari soniga kura va bu holatlarni amalga oshirganlar soniga ko'ra hisoblanishi mumkin.

Deviant xulk-atvor geografiyasini, tuzilishi va dinamikasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayonning makon va zamonda amaliy uzgarishning ikki turi ko'rsatiladi.

1. Chekinishlar darajasining o'zgarishi deviant xulq-atvor hodisalar sonining umumiy o'sishi yoki kamayishi yoyinki aksincha, jamiyatda xulq-atvorning ma'naviy va xududiy me'yorlari mustaxkamlanishi bilan ushbu ko'rsatkichlarining kamayishi.

2. Ko'rsatkichlarning o'sishi va kamayishi shuningdek muxim xolatlari darajasida xam deviant xulq-atvor tuzilishining o'zgarishi. Ushbu tuzilish jixatidan o'zgarishlar turlicha bulishi mumkin: ogir turlarning yengil turlar hisobida o'sishi yoki aksincha. Deviant xulq-atvor turlarining biridan ikkinchisiga utishi masalan, ichkilikbozlikdan jinoyatga, biron bir yosh (yoki jins) vakillari salbiy xulq-atvorning boshqalariga nisbatan o'sishi va shu kabilardan tuzilishjihatidal o'zgarishlar u yoki bu mamlakat hududida yuz beradigan umumiy ijtimoiy va psixologik jarayonlarga xam bog'lik bo'ladi.

Inson butun hayoti davomida bir tekis bo'lmasada ms'yorlarga moslashib boradi. Qonunlarda ko'rsatilishicha va bizning ongimizda an'anaviy ravishda voyaga yetganlar ko'p narsani tushunishadi. aksariyat hollarda ongli harakat qilishadi va o'z kilmishlariniig okibatlarini uchun javob berishlari shart degan fikr o'rnashib qolgan. Biroq, bu ijtimoiy me'yorlarga qat'iy moslashib bo'lindi degani emas, u keyin xam shakllanib boradi va xatto butunlay o'zgarib ketishi mumkin.

Yukorida ko'rsatilgan «o'tish davrida» masalan, bolalikdan o'smirlikka o'tishda yangi ichki omillar, ya'ni xulq-atvor mustaqilligi paydo bo'ladi. Bolalikdan fark kilgan holda o'smir hatti-xarakati uning ongi bilan boshkarib boriladi va ijtimoiy ma'lumotlar manbasida ko'prok shaxsiy tajribaga tayanadi. Aynan ana shu yoshda ijtimoiy me'yorlarga xar xil qarashdan xulq-atvor sabab va maqsadlari turlicha shakllanadi. Deviant xulq-atvorni ko'pincha me'yorlarning teskarisi ekanligini hisobga olganda, me'yorning «oynadagi aksi» deyiladi. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha bu «aks tasvir» deviant xulq-atvordan ko'ra jamiyatdagi umum qabul kilingan me'yorlarga karshi turuvchi ijtimoiy guruhlar tomonidan tuziladigan «yashirin meyerlar»da ko'prok ko'zga tashlanadi. Bunday guruxiy me'yorlar «rasmiy me'yorlar»ning ba'zi boshkaruv uslublarini butunlay teskari holatga olib keladi. Mazmunan esa bu me'yorlar umum qabul kilingan xulq-atvor qoidalariga teskaridir.

Deviant xulq-atvor mexanizmlari kuyidagilarni me'yorga teskari ish qildiruvchi kat'iyat, motiv va maqsadlarni paydo kiluvchi moslashuvi amalga oshiruvchi ichki va tashki omillarning o'zaro harakatini o'zida mujassamlashtiradi-yu deviant xulq-atvorni metodik nuktai nazardan tekshirilganda bu o'rinda ikkita asosiy yondashuv mavjudligi ko'zga tashlanadi.

1. Deviant xulq-atvorning konkret turlari jinoyatchilik, boshka qonunbuzarlik, ichkilikbozlik, o'z-o'zini o'ldirish, giyohvandlik va hokazo. Mexanizmlarini klassifikasiyalash vaaloxida o'rganishdan iboratdir. Bunda ushbu hodisalarni amalga oshirgan xar bir guruh shaxslarning xulq-atvor xususiyatlarini chukur o'rganish mumkin, biroq ularni birlashtirib turuvchi umumiylikni aniklab bo'lmaydi.

2. Deviant xulq-atvor ularning barcha turlarida uchraydigan umumiy mexanizmlarni, xulq-atvor mexanizmlari xususiyatlari bilan shaxe xususiyatlari aloqasini, deviant xulq-atvor turidan kat'iy nazar real sharoitlarni aniqlashdan iborat. Ijtimoiy me'yorlar. odatda eng ko'p tarkalgan ijtimoiy xolatlarga asoslanadi. Bu holatda me'yor xech kandy qarshiliksiz amalda bo'ladi va ko'pincha anglanmaydi ham. Biroq kam uchraydigan xolatning paydo bo'lishi biri kancha kiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, kattalarga xurmat tushunchasi boshka me'yor yoki ushbu xolatda harakatlanayotgan subyektning anik manfaatlari bilan ziddiyatga kelmasa hych kandy qiyinchilik tug'ilmaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki xayot sharoitlari ba'zi hollarda subyekt oldida ko'yadigan ma'naviy va ruhiy muammo xar kandy xolatda ham o'z

individual qiziqishlari, manfaatlari va intilishlariga karshi chikib, me'yorga bo'ysunish lozimmi yoki teskarisini bajarish kerakmi degan savolga javob topishdan iboratdir.

Deviant xulk-atvorning ichkilikbozlik, giyoxvandlik turlari bilan bog'liq holatlarning fark kiluvchi tomonlari mavjud. Shunday farklarning uchtasini ko'rsatish mumkin.

1. Birinchi fark salbiy xayot hodisalarini uzok davom etishi bilan ajralib turishidan, ba'zan esa turmush tarzini bir bo'lagiga aylanib kolishdan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof muxitdan norozilik, o'kishdagi, do'stlar orasidagi tushunmovchiliklar va xokazolar bularning barchasi o'smir ruhiyatini jarohatlaydi, u yoki bu yo'l bilan mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi.

2. Bu xolatni xal kilish ma'lum kiyinchiliklarga ega, bularning ikkinchi farki xam shu bilan bogliq, mavjud yoki xayoliy Holatning asosligi. Amaliyotning ko'rsatishicha, xar kandy Holatda xam kup «kurbon» berib bo'lsada, ijtimoiy haqiqatga erishish mumkin. Lekin xamma gap shundaki, subyekt «kurbon»bera oladimi, o'smir o'z turmush tarzini o'zgartirishi, qiziqishlarini almashtirishi, do'stlar bilan alokani uzishi bitirishi, kizikishlarini almashtirishi, do'stlar bilan alokani o'zii biror kasbga ega bo'lishi mumkinmi yoki yukmi? Usmirning qat'iy karorga kela olmasligi kupincha bu xolatni chikib bulmaydigan «xolat» deb baholashi o'smirni ko'ngilxushlik vositalariga ichkilik va giyoxvandlik moddalariga ruju qo'yishiga olib keladi.

3. Bunday holatlarning uchinchi farki shundaki, ular xal qilishning «sarob», ya'ni, hal kilib bo'lmas yo'llarini, «taklif» qildilar. Ya'ni ularga bu xolni xal kilishda katiy karor qilishga zaruriyat yo'qdek tuyuladi. Bu yo'l esa turli ziddiyatlarning chukurlashuviga va o'smir ruxiyatiga psixologik sindromlarning rivojlanishiga olib keladi.

Deviant xulk-atvor mexanizmlarini o'rganayotganda o'smirning psixologik va psixofiziologiya xususiyatlari, masalan, usmirning turli qiyinchiliklarni yengishi yoki undan qochishiga, sharoitga moslashishi yoki kutulishiga, sharoitni baholash va karor kabul qilishidagi tezkorlik xususiyatini xam e'tiborga olish lozimligini ko'rsatadi.

Deviant xulq-atvorning mexanizmni soddallashtirganda unda to'rtta asosiy bo'g'in namoyon buladi: muammoviy (ziddiyatli) sharoit, kadriyatli-me'yoriy boshkaruv karor qabul holatini amalga oshirish.

Deviant xulq-atvorning ommaviy va individual darajalari orasidagi fakat to'gri alokalar emas, balki teskari alokalar xam mavjuddir.

Psixologik va kriminologik adabiyotlarda psixologik uz-uzini himoya kilishning eng ko'p tarkalgan kuyidagy usullari ko'rsatib o'tilgan. Keltirilgan zararni inkor etish. Ayblovchilarni ayblash.

«Yanada muhimroq» sharoitlarga asoslanishi. Psixologik tadqiqotlarga asoslanib, ma'naviy rivojlanish boskichlari asosida deviant xulq-atvorning o'z-o'zini ximoya qilish usullarini ko'rib chiqish mumkin. Birinchi boskich «ma'naviyatgacha bo'lgan ong» ikkita pogonadan iborat. Birinchi, kuyi pogona xakikiy ma'naviy qarashlar yo'k. rasmiyta'kiklarga «aks holda jazolashlari» tufayligina amal kilinadi. Ikkinchi pogonada ijtimoiy me'yorlarga buysunishdan foyda olishga intilish ko'yiladi. Shu tarika ma'naviyatgacha bo'lgan ong darajasida subyektning ijtimoiy karashi asosida shaxsiy foyda va manfaatlari yotadi. Ma'naviy burch va shaxsiy mas'uliyat xissi xaqidagi tassavur mavjud bo'lmaydi.

## **15-Mavzu: Dars jarayonida tarbiyasi qiyin o'smirlar bilash ishlash**

### **Reja:**

1. Dars jarayonida xulqi og'ishgan bolalar bilan olib boriladigan ishlar.
2. Dars jarayonida diqqat, xotira, irodaning roli.
3. O'qituvchining dars materialini o'zlashtirmoqchi o'smirlar bilan olib boriladigan ishlari.

**Tayanch iboralar:** xulqi og'ishgan bolalar bilan ishlashda talablar, diagnostik mezonlar. L.S.Vigotskiy nazariyasi. dars jarayoni, tarbiyasi kiyin o'smirlar, dars jarayonida diqqat, xotira, irodaning roli, darsni o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar.

Usmir nima uchun kupol? Nima uchun u topshiriklarni bajarishni xohlamaydi? U o'zini barcha darelarda shunday tutadimi? Kimlar unga ta'sir utkaza oladi? Uning xatti-harakatining sababi maktabda, o'kishiga salbiy munosabatdami yoki maktabdan tashkaridami?

Barcha sanab o'tilgan va shunga o'xshash ko'pgina savollarga javob bergandan keyingina o'smirni to'g'ri tushunish. xamda u bilan individual ish olib borishning samarali yo'lini tanlash mumkin.

Darsda o'quv materiali muvaffakiyatli o'zlashtirishning muhim psixologik sharti o'quvchilarning diqqatidir. Diqqat oldidan muljallangan va mo'ljallanmagan, ixtiyoriy va ixtiyorsiz oo'lishi mumkin. Oldidan muljallangan (ixtiyoriy) diqqat oshishining faoliyati obyektiga ongli munosabatdan kelib chiqadi va muayyan bir iroda kuchi bilan boglik bo'ladi.

Aytib o'tilganidek, tarbiyasi kiyin usmirlarda mas'uliyatli his etish xam yetarli tarbiyalanmagan iroda xam kupincha yetishmaydi. Shu sababli darsda ularning diqqatlari, ham ko'pincha beqaror bo'ladi. Umuman olganda, diqqat qilmaydigan o'quvchilar bo'lmaydi. Fakat bemor kishidagina (fikrini bir yerga to'plash qobiliyati butunlay bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun avvalo o'kuvchi qachon, kayerda va kanday vaziyatda, ayniksa diqqat kilmasligini, uning sababi nimada ekanligini aniklash zarur. «Qiziqarli ish, kiziqarli dars o'smirni shunchalik rom kilib oladiki, u charchash nimaligini bilmasdan, juda uzoq vakt kizikib ishlashga kobiliyatli bo'lib qoladi, zotan, agar ishi bilinib qolsa, yana avvalgi ishtiyoqi bilan kirisha oladi, unga hych qanday o'zini qistash va zo'rlashsiz qaytadi», o'kuvchilarning diqqatini nazorat kilib, pedagog u darsga kanchalik tez kirishib ketishini frontal topshiriklarni qanday bajarishini kuzatadi, yangi material yuzasidan savollar beradi boshqa o'kuvchilarning javoblarini to'ldirini tavsiya kiladi.

Ukuvchilarning bir qismi darsga birdan kirishib keta olmaydi. Bu intizosizlikdan tashkari, tolikish, kam harakatlilik, ayrim o'quvchilar asab tizimining faoliyatsiziligidan kelib chiqadi. Bunday o'smirlar hamisha pedagogning nazarida bo'lishi lozim, bu hol ularga o'z faoliyatlarini faollashtirishga o'z vaqtida yordam berishga imkoniyat yaratadi. Ayrim o'kuvchilarning diqqati butun dars davomida tarqoq bo'lib, mashg'ulot oxirida ayniksa susayib ketadi. Bu o'kuvchi asab sistemasining bo'shligi yoki tolikishning natijasi bo'lib, hakim (vrach) maslahatini (konsultasiyasini) talab etishi inkor qilinmaydi. Birok agar medisina yordami zarur bo'lsa, bu o'rinda yordamning o'zi kifoya kilmaydi. Uqituvchining dadillashtiruvchi luqmasi. murakkab bo'lmagan savol va topshiriqlari bilan o'kuvchini bir faoliyatdan ikkinchisiga (masalan matematik hisoblashdan, laboratoriya ishiga) o'tkazish bilan o'kuvchi diqqati kuchsizlanishining oldi olinishi mumkin.

Oxirgi darslar ayniksa toliktirib yuborishini eslatib o'tamiz. Shuning uchun o'ta diqqattalab ishlar, murakkab xisob-kitoblar, topshirikdarni oxirgi darslarga ko'yish maksadga muvofiq emas.

Darslardagi xiyla murakkab va serdikkat ish turli sabablar kompleksı bilan izoxlanadigan bekaror o'kuvchilarbilan olib borilishi lozim. Birinchidan. bunday vazifapar sistemasi o'kuvchilarning, kuchi yetadigan, shu bilan birga, uning uz kuchiga ishonchini mustahkamlashga imkon beradigan bo'lishi lozim; bilimlarni egallash va muvaffakiyatga ishonch paydo bo'lishi darajasiga qarab. topshiriklarni asta-sekin murakkablashtirib borish kerak: ikkinchidan. yangi bilimlarni turmush bilan boglash uchun hamma imkoniyatlardan foydalanish ma'kul; uchinchidan, o'kuvchilarga aktiy faoliyat priyomlarini usullarini egallashda yordam berishi kerak. bu bilimlarni egallashning o'ziga va ularni amalda ko'llashga asta- sekin kizikish uyg'otadi.

Ko'pincha pedagoglar o'zlashtirmaydigan o'kuvchilarning xotirasi yomonligini kayd etadilar. Ba'zan bolalarning o'zlari xotiralaridan shikoyat qiladilar. Buning ustiga katta o'smirlarda va yigitlarda bilish va eslash (xotirlash) jarayonida xiyla o'zgarish yuz beradi zotan, bu o'zgarish ijobiy bo'ladi.

Eslashning ixtiyoriyligi. ya'ni ko'plab faktik materiallarni oldindan mo'ljallab eslash konuniyati ortib bormokda. Eslash mahsuldorligi yaxshilanishi bilan bir qatorda uning usullari ham takomillashib bormokda bunda o'smir o'quv materialini yaxshirok eslab qolish uchun bir qator yordamchi vositalardan foydalanadi. Ogzaki- mantikey xotira yanada rivojlanadi. mavxum (obstrakt) materialni eslash, bilimlarni so'zma-so'z emas, mazmunini tushunib o'zlashtira boshlaydi. Uzlashtirmokchi o'quvchilar bilan ish olib borishda mana shularning barchasi hisobga olinishi kerak.

Tarbiyasi kiyin o'smirlarni tadqiq etishda psixologiyadadiagnostika va korreksiya ishlari uchun yagona yondoshish yo'q. Har bir yondashishlar o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega va u yoki bu metodni tanlash bir kagor shartlarga:

a) psixologning kasbiy tayyorgarlik darajasining xarakteriga;

b) uning qaysi nazariyaga kuprok yaqinlashishga;

v)uslubiy vositalarga;

g)nihyot konkret vokeaning holatning xususiyatlariga boglikdir.

Birinchi yondoshish sifatida kuyidagilarni ajratishimiz mumkin. Psixologning vazifasi - kiyinlikni keltirib chikaruvchi sabablarini topishi va moye korreksiya metodlarini aniq o'tashi shart. Maktab psixologi maktab direksiyasi tomonidan talab yoki surovga kandy munosabatda bulishi kerak, degan savol turadi. Bu maktab psixologi javob berishi kerak bo'lgan birinchi savoldiru Bu borada surovga ikkita prinsipial jihatdan turlicha bo'lgan~~munosabat va shunga moye xolda ikkita turli ishlash strategiyalari mavjudligini e'tirof etish mumkin.

Birinchi strategiya surovlariga nospesifik javob kaytarish bo'lib hisoblanadi. U ikkita yul bilan amalga oshishi mumkin. Birinchidan, surovga javoban (birok uning mazmunga bog'liq bo'lmagan xolda) psixodiagnostik tadbirni mujassamlashtiruvchi metodlarning batareyasi ayrim standart to'pla^ ko'rinishda ko'llaniladi. Amaliy psixologlar tomonidan bu usul u yoki bu shaklda qo'llaniladi. chunki ma'lum bo'lgan. ko'rilishi kiyin bo'lgan qiyinchiliklar bilan bir qatorda «yashirin» holdagi bolaning shaxeyi rivojlanishidagi «defektlarni» ajratish imkoniyatini ochish kerak. Bunday diagnostik tadbirning asosiy maksadi - o'kuvchining psixik rivojlanish darajasining umumiy tavsifini yaratish. shu pozisiyasidan so'rovni verifikasiya va mumkin bo'lsa reinterpritasiyasini utkazishdir. Bunday ko'p yoklama va tulik diagnostika natijalari psixolog uchun xam, ota-ona va o'kituvchilar uchun xam tarbiyasi «kiyin» bola bilan

rivojlantiruvchi va korreksion ishlarning yo'llarini aniklash imkoniyatini beradi. Keltirilgan usul ma'lum afzalliklari bilan bir katorda ma'lum kiyinchiliklarga xam ega. Avvalom bor, bu usul juda katta, kup vakt talab etadi va shunga kura uni amalga oshirish xamma vakt xam mumkin bulmaydi. Bu yerdatalim va vakt sarf bo'lishi fakat psixologning muammosi bo'lib qolmasdan. balki tarbiyasi «kiyin» o'kuvchining muammosi xamdir, chl-nki u xam tolikadi, tekshirishda ishtirok etishdan bosh tortadi, bosh tortmagan vaziyatda esa. o'zi sezmagani xolda ushbu vaziyatni sof format bajariladi. Amaliyotning ko'rsatishicha, o'kuvchiga xos kiyinchiliklar vezual metodikalar bilan ishlaganda paydo bo'lar ekan. Bundan tashkari psixolog ko'llayotgan testlar batariyasi eng to'lik bo'lishidan kat'iy nazar, shaxening akliy xarakteristikasi u'chun doim yetarli bulmaydi.

Ikkinchidan, so'rovga nospesifik javob kaytarish usulidir. Uni psixologiya fani va amaliyotiga xissa ko'shgan mashxur amerika psixologi K.Fodjere olib kirgan. Uning n\tsgai nazaricha tarbiyasi «kiyin» yoki uning terminologiyam buyicha «muammoli» bolalar bilan ishlash uchun so'rovning mazmuni kiyinchiliklar sabablarini tushunishiga teng bo'lib, hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Muammoli bola bilan ishlashda ent muximi shunday sharoit yaratish kerakku, bunda bola shaxeini yaxlit riyujlantirish asos kilib olinib, unda mavjud bo'lgan xulk-atvor, xatga-xarakatning sachbiy ustanovkalaridan voz kechib, yangiliklarni yaratishga majbur qilish takozo etiladi. Surovga nospesifik javob kaytarish strategiyasida karama-karshi bo'lgan strategiya olingan surovga kat'iy moye xolatda diagnostik usularni tayinlashdan iborat. Masalan, yomon o'zlashtirish to'g'risida so'rov tushsa, birinchi navbatda bilish jarayonlari analiz kilinib, so'nggina agar bu diagnostika o'zlashtira olmaslik sabablarini ochib bera olmasa. boshka xususiyatlari ko'rib chakiladi. Diagnostika natijalariga moye xolda korresion ishlar ko'riladi va ko'pincha trening ko'rinishda amalga oshiriladi. Masalan. xotiraniig kucheiz rivojpanishida uni mashklantirish yetarli darajada rivojlanmagan ixtiyoriylikda uni shakllantirishning maxsus dasturri programmasi kiritiladi. ijtimoiy xatti-xarakat, xulk-atvor buzilganida moye ijtimoiy xarakag shakllantiriladi va xokazo.

Albatga o'zida ikkala Strategiya elementlarini xal kil gai turli oralik xarakatlari xam uchraydi.

Bu strategiyalar uchun umumiy bulgan narsa, ular xar bir xolatni individual taxlil (analiz) qilish uchun mo'ljallangai. Ong rivojlangan shaklda bunday taxlil (analiz) fakat «orkada qolish zonasini», «defekt strukturasi» va hokazoni oddiy «kesib olingan» qayd qilishni nazarda tutmasdan, balki yaxlit shaxe shakllanishining dinamikasini genetik tahlilni nazarda tutadi. Uning kontekstida defektning joyi va ahamiyati aniqlandi.

Bunday yondoshishning metodologiyasi L.S.Vigotskiyning «qiyin bolalikning diagnostik va pedagogik klinikasi» deb nomlangan kitobida keng yoritilgan.

Uning hukmlaridagi asosiy jixatlarni misol tarikasida keltiramiz. Etiologik tahlilning markaziy muammosi sifatida:

- a) simptom paydo bo'lishi mexanizmlarini yechish;
- b) kandy rivojlangan;
- v) kandy mexanizm yordamida paydo buldi va urganildi;
- g) simptom kandy sababga asoslanganligini aniqlashni ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot yo'nalishi bu yordam xuddi aylana tarzida bo'lib, simptomni aniklashdan boshlanib, so'ngra bu simptomlardan ularni markazida, asosida yotuvchi jarayonlarga egilib, bizni diagnozga olib keladi. U bizni yana diagnozdan simptomga yo'naltirib, sababiy motirovka va bu simptomlarni



kelib chikishini ochib berishi kerak. Agar bizning diagnoz to'g'ri bo'lsa, u holda simptom paydo bo'lishi mexanizmlarini ochish yordamida o'zining xakdigini isbotlash kerak. Ushbu rivojlanish jarayonining o'zini ko'rsatuvchi tashqi ifodalanishi bizga tushunarli bo'lishi lozim. Diagnoz doimo biz yukorida aytib o'tilgan shaxening murakkab strukturasini nazarda tutishi hamda uning struktura va dinamikasini aniklash lozim bo'lsa. U hamda etiologik tahlil ushbu shaxening murakkab struktura va dinamikasi aniklanuvchi sindromning (simptomlar yigindisi) dinamik zanjirining mexanizmini ochgan bulishi lozim.

## **16-Mavzu: Tarbiyasi «qiyin»likni keltirib chiqaruvchi potoxarakterologik xususiyatlarni bartaraf qilish yuzasidan tavsiyanomalar**

### **Reja:**

1. Tarbiyasi kiyinlikni keltirib chiqaruvchi potoxarakterologik xususiyatlarni bartaraf qilish yuzasidan tavsiyalar.
2. Psixokorreksion ishlar metodikasi.
3. Me'yoridan oggan xulk-atvor profilaktikasi.

**Tayanch iboralar:** Potoxarakterologik xususiyatlarni bartaraf qilish, psixokorreksion ishlar metodikasi, me'yoridan oggan xulk-atvor profilaktikasi.

Tarbiyasi kiyin o'smirlarga jinsiy tarbiya berish psixologiyasi, hukuqiy tarbiya berish xususiyatlari va metodlari.

Tadkikotchilarning ishlari bilan tanishish shuni ko'rsatadiki, potoxarakterologik xususiyatlarni bartaraf qilish uchun maxsus psixokorreksion ishlar rejasini tuzib chikish lozim. Bunda, aksentuasiyaning xar bir tipi uchun eng kuchli shikastlovchi psixogen ta'siri ajratiladi. Usmir shu tchrdagi ta'sirni nazarda tutuvchi vaziyatlarga tashlanadi.

Aksentuasiyalashgan o'smir bilan olib boriluvchi ushbu yunalishdagi psixokorreksion tadbirni analiz qilgan E.G.Eydemiller va V.V.Yustiskiy 3 ta asosiy maksadni ajratgan.

1. Usmirni uchun murakkab, qiyin bo'lgan vaziyatni tanishga o'rgatish. Masalan, gipertim tipi uchun bunday vaziyat, o'zining energiyasini ushlab turish, lobillatib-emosional

axamiyatli shaxslar tomonidan inkor etilishi istiroid tipi shaxs sifatidan tga nisbatan e'tiboran yetishmasligi va hokazo.

2. Usmir uchun kiyin bo'lgan vaziyatlarni obyektivlashtirishi ularni xuddi tashqaridan kuzatayotgandek karashga o'rgatish, o'smirni bunday vaziyatlarni analiz qilishni. shaxsiy xatolar asosidagi tajribadan maxsuldor foydalanishni o'rgatish.
3. Usmir uchun murakkab bo'lgan vaziyatlarda xulqning mumkin qismlarni diapazonini kengaytirish, avtorlarni aniqlashiga, xulq-atvorni standartligi, steriotipligi shaxsga moye kelmaydigan talablar kuyilayotganligida yorikin ko'zga tashlanadi.

Bu maqsadlarni fahat oddiy verbal darajada emas, balki real xulq-atvor darajasida amalga oshirish lozim. Misol kilib guruhiy o'yinlardan ayrim syujetlarni keltiramiz.

Usmirlarga qiyin bo'lgan bir qancha vaziyatlar taklif etiladi. Sen biror o'tirishga tayyorgarlik ko'rmoqdasan. Shimingni dazmollading, biror narsa yeb olmokchisan. Ichishga xech kanday-xohishing yo'k, shu vakt tanishing kelib qoladi uni Cho'ntagida shisha bor. Uni juda ichkisi kelayapdi va fakat sen bilan, u seni sabab va bahonalarni ishga solib ichishga rozi qilmoqchi.

«Tanishing» rolini psixoterapevt o'ynaydi. U «kayfiyatini ko'tarishi uchun ichishni taklif qiladi, o'smir bosh tortsa, u «hayron» bo'lib, yana ichishga taklif qiladi. Eng kuchli argumentlar» «Qiz bolamisan?», «Oddiy narsadan muammo qilma», «Qo'rkma», «Vaqtimni olma», «Do'stmisan. oldingi safar nimagadir ichganding», «Meni kayfiyatim yomon, do'stlik qil!»

Bosh qahramon o'yinini bir qancha o'smirlar o'ynagandan so'ng, o'yin natijasi muhokama qilinadi. Doskaga yoki katta qog'oz varag'iga «Tanishing» barcha argumentlarni yozib chikilib, kinga qaysi argument eng ta'sirchan bo'lganligi muhokama qilinadi.

Bizning fikrimizcha bunday psixokorreksion tadbir metodikasi maxsus tashkil qilingan psixoterapiya guruhlarida ham qiyin vaziyat kundalik maktab hayotidan olinganda ham qo'llanishi mumkin. Bu metodikaning kuchi o'smir xulq-atvorini o'zi o'zgartirmoqchi bo'lgandagina mas'uldordir.

Aksentuasiya o'smirlar bilan ishlashning yana biri yo'li uning aksentuasiyasi tipiga bog'lik xolla u uchun eng optimal sharoitlarni yaratish. Ular uchun chuqur individual mashgulotlar talab etuvchi, intellektual yoki jismoniy ishlarining ma'lum tipiga jalb etish foydali (matematik to'garak, kompyuterga programma va o'yin tuzish va xokazo).

Me'yorida og'gan xulq-atvor profilaktikasi psixolog,-o'kituvchi ota-onaning birgalikdagi ishidir. Profiggaktikaning asosiy maksadi potoxarakterologik sharoitlarga nisbatan nerv sistemasi tizimi chidamliligini tarbiyalashdir. Bunga bir kator tadbirlar sistemasi orkali erishish mumkin. Bularga to'g'ri tashkil etilgan akliy mexnat va dam olish. nerv sistemasi tizimining asosiy jarayonlarini mashklantirish kiradi. Aksentuasiyasi bor o'smirlar bilan ishlashda o'kuvchiga shaxsiy yondoshish. uni psixikasini himoya kilish. asrash prinsiplariga asoslanish lozim.

Bu borada istiqbol maksadini nazarda tutish lozim, ya'ni o'smirni shaxsiy xususiyatlarini mukamallashtirish yo'llarini belgilash. Bunda eng sodda vazifalardan boshlab. sekin- asta murakkablariga ugash kerak.

Me'yordan oggan xulq-atvorni bartaraf etishni o'smirni o'ziga, tengdoshlariga. ota-onasiga. o'qituvchilariga bo'lgan munosabatlar sistemasini - tizishni kayta ko'rmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Bola otgona bilan suhbatlashib. munosabatlardagi diformasiya saeablarini aniklash mumkin. Ko'pincha bu silab-siypalab, erkaleb tarbiyalash okibati bo'lib, boladagi egoistik belgilarni korreksiyasini takozo etadi.

Usmirlarga jinsiy tarbiya berish psixologiyasi o'ta murakkab va mas'uliyatli xamdir. 10-11 yoshdan boshlab to 17-18 yoshga kadar bolalarni ko'pincha pubertot (lotincha pubertos so'zi - yetuklik, voyaga yetish, tayyor, turmush kursa bo'ladi, turmushga chiksa bo'ladi, uylansa bo'ladi degan ma'noni anglatadi va voyaga yetgan yoshdagi bolalar deb atashadi). Bu yoshda o'smirning xulq-atvori ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatadigan jinsiy rivojlanish boshlanadi. intensiv ravishda davom etadi va poyoniga yetadi. Bola organizmining kayta tuzilishida jinsiy soxadagi xamda endokrin apparatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar yetakchi rol o'ynaydi. Birok, ushbu o'zgarishlarning ahamiyatini, ba'zi bir mutaxassislar aytgani singari, o'sish yoshining asosiy jarayoni sifatida karab. uning ahamiyatini xaddan tashkari oshirib yubormaslik

kerak. Bu yoshdagi bolaga bo'lgan eng asosiy munosabat o'sib kelayotgan kishining sosializasiya kilinishi, ya'ni uni ijtimoiy xayotga faol ravishda jalb etilishi hisoblanadi. chunki bu yoshda bola tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarga va o'z-o'ziga nisbatan, o'zida ijtimoiy xulk-atvor ko'nikmalarinsh shaklana borishiga nisbatan go'daklarga Karaganda ancha opglirok munosabatda bo'ladi. Jinsiy voyaga yetish jarayoniga kelganda pguni aytish kerakki, u organizmning butun bir yaxlit tipdagi uzgarishi, uning organlari va tizimlari anchagina kismning qayta tuzilishi bilan hamda, eng muhimi, bolaning nerv sistemasi va psixikasi bilan boglik bo'ladi.

Jinsiy rivojlanish turli o'smirlarda turlicha sodir bo'ladi, bu jihatdan o'smirlar birbirlaridan ancha sezilarli darajada fark kiladilar. Masalan, ba'zi bir bolalarda pubertot deb atalmish o'sish davri 10-11 yoshidan boshlanadi va 13-14 yoshda yakunlanadi, boshqa bir xil bolalarda esa bunday xol 16 va 18 yoshlar orasida sodir bo'ladi. Ayrim hollarda o'g'il bolalarning sezilarli darajada jinsiy organlarining usishi 9,5 yoshdan 14,5 yoshgacha kuzatilsa, boshka bir xil bolalarda

bunday jarayon 1 yeshdan 17 yoshgacha davom ztadi.

L.Aynimaning farqlari kupincha bolalarning xulk-atvorida xam uz aksini topadi. Shu narsaga sira shubxa kilmasa bo'ladiki, bolalarning erta yoki kech voyaga yetishi ularnint xulk-atvorida xam uz ifodasini topadi. Xatto ayrim bolalarda bu ularning xulk-atvoriga ancha sezilarli darajada ta'sir kursatadi. Ayni mana shu farklar ko'pincha bolalarning xulk-atvorida ham o'z aksini topadi. Shu narsaga sira shubxa qilmasa bo'ladiki bolalarning erta yoki kech voyaga yetishi ularning xulk-atvorida xam o'z ifodasini topadi, xatto ayrim bolalarda bu xol ularning xulk-atvoriga ancha sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Kichik yeshdagi o'gil bolalarning uz olami bo'lib, uning nazarida obru bilan muvaffakiyat unga xar doim hamroh bo'ladi. uningcha xayetida eng asosiy instrumentiga ko'ra uning sermaxsul gavdasi xisoblanadi. Bunday bolalar uz tengdoshlaridan fakat pltertat davridagina emas, umuman barcha sohalarda ulg'ayib ketgan ugil bolalar o'z tengdoshlari ichida ajralib turadilar va ularga yetakchilik kiladilar. (Aslida xam muskullari rivojlangan ugil bolalar urta xisobda olganda boshka bolalardan oldin yetiladilar va ularda pubertat o'sish ham boshkalaridan ilgari boshlanadi. Aksincha. jismoniy jixatdan sekin rivojlangan ozgin bolalarda pubertat davr o'rta xisobda olganda bir oz kechroq boshlanadi.

O'z atrofidagi tengdoshlari muvaffakiyatli ravishda rivojlanayoltanligini kurgan bunday sekin o'sayotgan bola goxida ich-ichidan kuyinib jismoniy jixatdan o'ta o'z tengdoshlariga yetib olishiga ishonmay gumonsiray boshlaydi va men xam chinakkam erkak fishi bo'lib yetisharmikanman, deb o'ylay boshlaydi. Jinsiy masalalar bilan boglik bo'lgan bunday tashvish va bezovtalik kup hollarda fakat beixtiyor ravishda namoyon buladi hamda ancha murakkab va chuqur sabablar orkalizuxur etiladlu

3 Vrachlar ishtiroki bilan 10-17 yeshdagi o'gil bolalarning jinsiy rivojlanishi darajasi urganib chikilgan. Jinsiy rivojlanishga baxo kuyish vaktida bu soxada keng tarkatgan metodikadan foydalanilgan. Ushbu metodikaga binoan katta yoshli erkak kishining jinsiy rivojlanishi 18 balli tizim sistema bilan baxolanadi. Quyida mazkur yosh guruxda bo'lgan bolalar va usmirlarni tadqiq etib o'rganishning foizlar bilan ifoda etilgan natijalari keltirilgan.

*O'gil bolalarning jinsiy rivojlanish.*

Jinsiy rivojlanish b&plari	10 yosh	Pesh	12 yesh	13yosh	14 yesh	15yosh	16yosh	17 yosh
0	90	74	45	9				
1-2	10	26	38	28	9	4		
3-5			17	38	29	17	7	<b>z</b>
6-8				25	40	26	22	10
9-4					20	40	39	28
12-14					1	16	31	45
15-17						2	0	14

O'smirlar yoshi ulgaya borgan sari ularning jinsiy rivojlanish darajasi differensiyallanib, kay darajada uzgarib borayotganligini sezib olish unchalik kiyin emas. Mana obyektiv sharoitga muvofik tegishli masalalarni xal etish vaktida har bir o'kuvchiga kat'iy ravishda individual yondashish "ZARUR" degan muhim xulosa kelib chiqadi.

Yuqorida aylilganlardan kelib chiqqan xolda shu narsani anik ravshan aytish kerakki, bolalarga jinsiy garbiya berishni to'gri

yo'lga qo'yish o'smir shaxsining shakllanishida, ular organizmining rivojlanishi va voyaga yetishida g'oyat muhim rol o'ynaydi.

Jinsiy problemani ishlab chiqish sohasida ba'zi bir yutuqlarni ko'lga kiritgan bo'lishga qaramasdan bolalar va o'smirlarga jinsiy tarbiya berish masalasi hanuzgacha o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunar o'quv yurtlarida ham tarbiyaviy ishlarning sust yo'lga ko'yilgan sohaligi ko'zga tashlanmoqda.

Igit kizlarning quyidagi savollarini keltiraman:

- 1.Nima uchun yigit bilan kiz do'stlashganida ularning ustidan kulishadi?
2. Nazokat deganda nimani tushunish kerak?
3. Nima uchun kiz bola yigitga birinchi bo'lib o'z muhabbatini izhor qilishi mumkin emas?
4. Sevgi o'zi bor narsami?
5. Do'stlik bilan sevgi o'rtasida kanaka farq bor?
6. Oilada necha farzand bo'lgani ma'kul?
7. Nima uchun hayotda xiyonat kilish hollari uchrab turadi?

Xush, insoniy munosabatlarning ana shunday g'oyat murakkab problemlari xususida mustaqil hukm chikarishni xali hayetiy tajribasi bo'lmagan yoshlarning o'ziga ko'yib beripd/shunday ishni butunlay o'z holiga tashlab qo'yish mumkinmi axir? Garchi xozircha bu sohada maxsus sosial-psixologik tadjikotlar juda kam o'tkazilgan bo'lsa ham lekin baribir muntazam ravishda jinsiy tarbiya bilan shugullanmaslik bu oiladagi urish-janjallarning, turli kelishmovchiliklarning, nikoxdan chikish. ajralish jarayenlarining bolalarni noto'gri tarbiyalashning xamda jinsiy sohadagi jinoyatlar sodir bo'lishining asosiy , sababchisi bo'lmasa xam. xar holda g'oyat muhim sabablardan biri xisoblanadi

Muntazam ravishda olib boriladigan jinsiy tarbiyaning yo'kligi jinsiy odob masalalarida sosial psixologik jihatdan hamda fiziologik jihatdan chekinishlarning muxim sabablaridan biri bo'lishi mumkin.

Jinslar o'rtasida o'zaro to'g'ri munosabatni tarbiyalash uchun har kandy tadbir uchun zarur bo'ladigan tegishli bilim bo'lishi lozim xamda to'g'ri xulq-atvor tajribasini umumlashtirib uyushtira bilish kerak. Bunda albatta kuyidagi to'rtta vazifani muntazam ravishda xal qilib bormoq zarur: 1) o'gil bolalarni o'z-o'ziga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash; 2) kiz bolalarni o'ziga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatish; 3) o'gil bolalarni kiz bolalar ga nisbatan va 4) kiz bolalarni o'gil bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish ruxida tarbiyalash kerak.

Bu o'kuvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashga oid tadbirlarni uyushtirishda xam o'z ifodasini topishi kerak.

Qizlar bilan ish olib borilganda ular o'z jinsiy xulklariga nisbatan goyat mas'uliyatli munosabatda bo'lishlari kerakligiga aloxida e'tibor berish lozim. Hayotda yigit-qizlarning nikoxdan oldin birinchi jinsiy yakinlikka kirishlari amalda to'rt xil vaziyatda pay do bo'ladi. Birinchidan, kizning yigitga chindan xam kuchli darajada berilib ketishi sabab bo'ladi ko'pincha buning negizida yoshlarga xos samimiy sevgi yotishi mumkin. Ikkinchidan, yoshga xos mustakil erkin bo'lishga «man etilgan» ishni sinab ko'rishga intilish sabab bo'ladi. Uchinchidan, kattalarning maslahatlari va tadablarini nazar pisand qilmaslik, orkasidan kelib chiqadi. Nihoyat, to'rtinchidan, voyaga yetmagan yoshlarni (ko'pincha voyaga yetmagan qiz bolani) katta yoshli ahloqsiz kishi tomonidan yo'ldan urilishi natijasida bunday xunuk xol yuz beradi. Igitlar to'rtinchi xolatga kamdan kam tushib qoladilar, buni ko'prok xotin-qizlarga xos bo'lgan vaziyat deb atash mumkin va biz bu to'grida keyinroq so'z yuritimiz. Dastlabki uch vaziyatda kelganda shuni aytish kerakki, ular iigitlar uchun ham kizlar uchun xam amalda bab-baravar taallukli bo'lib, ularning xar biri hayotida uchrashi mumkin bo'lgan hodisadir. Qiz bilan birinchi navbatda erkak va ayol~ o'rtasidagi intim munosabatlarga ko'proq kiziqayotgan kizdar bilan va ayniqsa, shunday alokani boshlab psixologik va fiziologik iztiroblarni boshidan kechirgan kizlar bilan olib boriladigan tegishli individual ishlar nakadar muhim^ aqamiyatga ega ekanligi yetarli darajada ta'kidlab o'tilgan. Birok, bu endi jinsiy tarbiyaning uchinchy aspekti psixologik aspekti (nuktai nazari) bogliq bo'lgan fikrlardir.

Psixologik aspektning mohiyati shaxsning turli jinslar va jinsiy aloqalarga bo'lgan munosabatini o'rganishdan, bunday munosabatlarning individual variantlarini o'rganishdan hamda xato, noto'g'ri gohida esa patologik jihatdan to'g'ri bo'lmagan munosabatlarning oldini olish va ularni tuzatish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishdan iborat.

Turtinchi aspekt bu yuridik aspektidir. Mustaqil mehnat hayotini boshlashga kirishayotgan yoshlar oila mehnat xayotini boshlashga kirishayotgan yoshlar oila qurishga xam tayyorlangan bo'lishlari kerak, buning uchun esa, jumladan, ular nikoh va oila to'grisidagi qonunlarni, O'zbekiston Respublikasi qonunini bilishi zarur.

Beshinchi, sunggi aspekt bu jinsiy tarbiyaning medisina aspektidir. Bu mutlako vrachlarga taalluqli aspekt bo'lib, u bilan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan o'rta medisina bilimiga ega bulgan kishilar shugullanadilar. Shuning uchun xam biz 16-18 yoshga to'lgan yoshlar bilishi mumkin bo'lgan savollarga beriladigan javoblar xususidagina qisqacha tuxtalib o'tamiz. Bunday masalalarni anik ravshan qilib bir nechta guruhga ajratish mumkin: 1) Odamning jinsiy tomondan yetilishining mohiyati va uning belgilari; 2) Anatomiya (odam jinsiy organlarining fiziologiyasi va gigiyenasi); 3) Nikox munosabatlari fiziologiyasi va gigiyenasi; 4) Jinsiy buzilishlari; 5) Tanosil kasalliklari va ularning profilaktikasi.

Birinchi, ikkiichi va beshinchi guruhlar yigit va kizlar bilan alohida-alohida o'tkaziladigan suhbatlar va ma'ruzalar orkali barcha o'quvchilar bilan amalga oshirib boriladi. Uchinchi va to'rtinchi guruhlarda individual ishlar olib borish yuli bilan ayrim o'quvchilarning masalalari bilan bogliq xolla xamda yoshlar yaqin munosabatni boshlab qo'ygan xollarda. shuningdek. jinsiy buzilish o'z xulkida tegishli kizikish yoki tendensiyalar namoyon bo'lgan shaxslarga nisbatan ko'llaniladi. JW Balog'at davrida o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik, usmirni nazoratsiz qoldirishi, bo'sh vaqtini to'g'ri uyushtirmasligi o'kishga nisbatan salbiy munosabat, sinf kollektivi jamoasi bilan aloqani yomonlashuvi, spirtli ichimlikka o'rgangani, tajavuzkor, serzadalik tarbiyasi kiyin o'smirlarni keltirib chikaruvchi muhim omillardan bo'lib xisoblanadi.

Tarbiyasi kiyin o'smirlarni o'rganishda ijtimoiy muxitdan tashkari pedagogik-psixologik sabablar mavjudligini xisobga olish, konunbuzarlarni kelib chiqish sabablarini diagnostika yordamida anikdash, tarbiyasi kiyin o'quvchilar shaxsini aniqlash ularnig psixologik munosabatlarini inobatga olgan holda tipologiyasini tuzish. tipologik xususiyatlarga binoan individual ish olib borish, qonunbuzarlikni oldini olib va tarbiyasi kiyin bolalarni kayta tarbiyalash metodlarini amalga tadbik kilish bu muammoni yechilishiga yordam beradi.

### **17-Mavzu: Tarbiyasi qiyin o'smirlarga huquq tarbiyasi berishning ba'zi bir psixologik masalalari**

#### **Reja:**

- 1.Tarbiyasi kiyin o'smirlarga xukuk tarbiyasi berish psixologiyasini o'rganishning ahamiyati.
- 2.Tarbiyasi kiyin o'smirlarlarga xukukiy tarbiya berish xususiyatlari.
- 3.Tarbiyasi kiyin o'smirlarga hukuqiy tarbiya berish metodlari.

**Tayanch iboralar:** tarbiyasi kiyin o'smirlarga xuquqiy tarbiya berish psixologiyasi, xukukiy tarbiya berish xususiyatlari va metodlari.

Uzbekiston mustakillikka erishgandan qiyin o'smirlarga xukuk tarbiyasi berishning shakllanib kolgan muayyan sistemasi xukuk bilimlari berish hamda o'smirlar bilan ana shunday faoliyatni tashkil etish ishlarini, o'z ichiga oladi. Bunda huqukiy bilimlarni amalda sinab ko'riladi hamda tegishli e'tikod shakllanadi va ukuvchidar o'zlarini lozim darajada tugri tutishni o'rganib oladilar.

Mamlakatimizda fukarolarning, ayniksa yoshlarning Huquqiy bilimlarini oshirishga katta e'tibor berilgan. Lekin bugungi kunga kadar turli maktab va o'quv yurtlarida davlat va xukuq asoslariga turlicha yondoshiladi. Uqitish uchun ajratilgan soatlar, uqitiladigan mavzular xatto xukukdan dare berayotgan UKituvchilar xam mutaxassisliklariga ko'ra turlichadir.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2001 yil 4 yanvar farmoyishi ushbu masalada ma'lum bir tizim va tartibni o'rnatdp desak mubolg'a bo'lmaydi. Farmoyishga asosan 2001 yil 1 sentyabrdan e'tiboran respublika uzluksiz ta'lim tizimida bogchadan to oliy ta'limning yuqori boskichi magistraturagacha xukukiy bilimlarni o'rganish avvalombor Konstitusiyadan boshlanadi.

Barcha ta'lim turlari uchun bolalar va o'quvchilarning yoki xususiyatlarini hisobga olgan holda hukukiy ong va madaniyatini shakllantirishga karatilgan Konstitusiyani o'rganish bo'yicha dasturlar, darsliklar va adabiyotlar yaratish vazifalari kun tartibiga ko'yiladi.

Bu borada o'kuvchilarga xukuk bilimlaridan dastlabki ta'lim beriladi va ularni konunga nisbatan kanday munosabatda bo'lishga o'rgatiladi. Maktab, lisey, kollejlarda fukaro xukuqiga bagishlangan kabinetlar yoki burchaklar, ma'naviyat xonalari, tashkil etish kerak va zarur. Bular amal kilayotir xam. Sud, milisiya prokuratura xodimlari bo'lgan yuristlar ushbu ishlarni olib borishga keng jalb kilinishi kerak. Bu faqat o'kuvchilarga zarur bo'lgan darajada nazariy bilimlar berishni talab etibgina kolmay, shu bilan birga yuridik bilimlarni moxirona konun himoya qiluvchi organlarning kundalik amaliy ishlari bilan boglab olib borish imkonini beradi.

Xo'sh, tarbiyasi kiyin o'smirlarga huqukiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Bu h^huqiy tarbiya forma va megodlariningindividuallashtirilishi-dan, mazkur o'kuvchilar. usmirlarga nisbatan aynan zarur bo'lgan bir muncha samaralirok ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan xukukiy tarbiya formalari va metodlarini tanlay bilishdan iboratdir. Bunda pedagogik jixatdan o'z holiga tashlab qo'yilgan o'smirlarning o'ziga xos xususiyatlarini. eng avvalo. ularning xukukiy konun-qoidalarini anglab olishga va xulk-atvoriga ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan xususiyatlarini xisobga olish lozim. Huqukiy bilimlarning (umuman boshka kuppina bilimlarning) past darajada o'zlashtirilganligi, mana shu bilimlarning hakiqiy foydali bilimlar ekanligiga tegishli e'tikodning mavjud emasligi. bu bilimlarning barkaror bilimlar ekaniga va ularni amalga ko'llanishi zarurligiga ishonchning yo'kligi. umuman konun talablarini nsimaslik xamda bu iblarni qat'iy bajarish kunikmasining yo'kligi, shaxsning xudbinlik belgilari. irodaning bo'shligi, qat'iyatsizlik, gayri ixtiyoriylik ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Mana shu aytilgan fikrlardan o'kuvchilarni o'qitish va ularga ta'lim-tarbiya berishni individuallashtirishning ba'zi bir usullari kelib chikadi: «Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish» darslarida o'quvchilar faoliyatini faollashtirish. ular egallaydigan bilimlarning moxiyati va amaliy axamiyatini xar bir uquvchi tomonidan chukur anglab olishni ta'min etish: o'kuvchilarni xukukiy tarbiya bo'yicha o'tkaziladigan sinfdan tashkari tadbirlarda katnashishga maksimal darajada jalb etish. o'sh' tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda ularning ishtirokini tuda ta'minlash ana shliday individuallashtirish usullaridandir. ^Ba'zan intizomsiz o'kuvchilarni va xatto konun buzar o'smirlarni ham ko'ngilli xalk posbonlari, kamolot ijtimoiy xarakati ishida ishtirok etishga jalb etiladi - bu mutlaqo noto'gridir, chunki qonun talablarini o'zi bajarmaydigan kishi bu ishga boshkalarini o'rgatish va ulardan bu qonunlarga rioya kilishni talab etish mumkin emas. Lekin boshka kuppina tarbiyasi kiyin bo'lgan o'quvchilarni bu ishga jalb qilish mumkin va lozim. Hali mustahkam x>"kukiy e'tiqodi bo'lmagan o'smirlar, huquqiy bilimlarni passiv ravishda, shunchaki o'zlashtirib olayotgan o'kuvchilar, irodasi bo'sh. xudbin bo'lsa-da, konunni buzmagani bolalar ana shunday o'smirlar sirasiga kiradi. Hukukiy bilimlarni tashvik kilish va qonun buzilishiga qarshi k>lrashish bo'yicha bajarilayotgan ishlarda ishtirok etish ularga ko'pgina bilim kasb-xunar kollejlari, o'k\' yurtlarining amaliy ishi ko'satilganidek. o'z kamchiliklaridan kutilishda ularning xukukiy normaparini bo'lishi ham mumkin emas, negaki ahlok-odob qoidalarining turli shaklda buzilishi negizida o'sha tartib koidalarpi bilmaslikdan ko'ra ko'prok bilib turib bilmaslikka olish. Ularni bajarishni istamaslik yoxud o'zini tegishli ravishda puxta bilmaslik yotadi.

Ana shu so'nggi xususiyat esa, o'z navbatida subyektiv ravishda yina tarbiyasi kiyin bo'lgan o'kuvchi shaxsiga xos bo'lgan muayyan xususiyatlar dan kelib chikadi. Tarbiyasi kiyin bo'lgan usmirlarning ko'pchiligi, masalan, qo'rkoq bo'ladi. Qo'rkrqlik bunday bolalarni turli buzg'unchilik bilan shug'ullanadigan tartib-intizomini buzadigan

kishilarga karam qilib qo'yishi mumkin, bunday qo'rqqoqlik hatto tajribalirok ahloksiz shaxslarning boshchiligida jamiyat uchun xatarli bo'lgan jinoyatchilarni amalga oshiruvchi guruhlariga birlashishi uchun ham sabab bo'lishi mumkin. Tarbiyasi kiyin bo'lgan usmirlarning kupchiligi yolg'onchi, ikkiyuzlamachidir, ular o'zlariga ham yaxshi karamaidilar hamda turli vazifa va topshiriklarni bajarishga nisbatan ham e'tiborsiz bo'ladilar. Bunday e'tiborsizlik kupincha ayrim usmirlarning ma'lumotsizligida namoyon bo'lishi mumkin.

Usmirlarning anchagina kismi maktanchok, o'ziga bino kuygan, qo'pol va odamlar bilan muomalada serzarda bo'ladilar, uzidan kichiklarga yomon muomala kiladilar. Nisbatan uncha ko'p bulmagan qismi bosiq, kam gap bo'ladi, ko'plari mehnatga yomon munosabatda bo'ladilar. Bunday kamchiliklarni tuzatish uchun har bir o'smirni shunday ish faoliyatiga jalb kilish, shunday shart-sharoitlarga qo'yish kerakki, bu yerda ular zarur pedagogik vazifalarni hal qilmoq uchun eng samarali holatda bo'lib qolsinlar.

Usmirlardagi muayyan kamchiliklarni tuzatish maqsadida eng samarali yo'nalishlar hamda faoliyat turlarini ko'rsatib o'tamiz.

1. O'smirdagi yaxshi fazilatlarini, kobilyatlarni, uni jamoa urtasida ijobiy baxo olishga xizmatga undovchi maqolalarni aniklash vazifalarni xar tomonlama rivojlantirish.
2. O'kuvchini jamoat ishlariga jalb etib. vakti-vakti bilan uning jamoa oldida xisob berib turishi xamda jamoa tomonidan uning yutuqlariga baho berilishi.
3. Bilim muassasalarida va undan tashqarida do'stona alokalar o'rnatilishiga yordam berish.
4. O'quv va jamoat topshiriklarini mazmuni va xajmiga karab asta-sekin murakkablashtirib borish. o'quvchi ko'lga kiritgan muvaffaqiyatlarga baho berish.
5. Erishilgan muvaffakiyatlar uchun muntazam ravishda ragbatlantirib borish.
6. Tankidga to'g'ri munosabatda bo'lishga asta-sekin o'rganib borish.
7. Ruxiy nervrologik tadqiqotlarga yo'naltirilgan ishlar o'tib borish, asabiy, ruxiy xamda samatik kasatlikka moyil bo'lgan o'smirlarni davolash.
8. Basharti o'smirda tashki tomondan sezilib turgan jismoniy kamchiliklar (masalan, semizlik, sepkilik, uzokni kura olmaslik va shunga o'xshashlar) mavjud bo'lgan takdira ular ustidan kulish, ularni masxara kilish mumkin emasligi yoki ularni izza kiladigan boshqa bir shakldagi xarakterlar kilmaslik kerakligi xususida kollektiv o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish bunday xollar yuz bergan vaktida ularga karshi keskin kurash olib borish.
9. Usmirni jamoaning ijtimoiy hayotiga jalb etish xamda uning ishlari tugrisida muntazam hisob berib turishini tashkil etish.
10. Usmir biror ayb kilib kuygan vaqtda har bir ana shunday hodisadan keyin albata chora ko'rish.
11. Rejimga rioya kilishi, pedagoglarning talablarini bajarib borish, jamoat topshiriqlarining amalga oshirilishi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda bu ishlarga tegishli baxo berish.
12. Usmir uchun xar safar unchalik kizikarli bo'lmasa-da, lekin kollektiv jamoa uchun kerakli bo'lgan topshiriklarni asta-sekin murakkablashtirgan holda berib borish.
13. Estetik tarbiya berish, bunda kiyim kiyish va ahlok-odob estetikasiga aloxida e'tibor berish.
- N. Shaxsni o'z-o'ziga hamda hatti-harakatlariga to'g'ri baxo berishiga o'rganish, o'z-uzini tarbiyalashga yordam ko'rsatish.



15.Usmirlarga ulardan chidamlilikni, o'zini puxta bilishni, boshqalar bilan hisoblashishni, ularga bo'ysuna olishni talab kiladigan o'quv vazifalari xamda jamoat topshiriklari berish, shuningdek shaxsning insoniy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradigan topshiriklardan foydalanish.

16.O'smirni asta-sekin raxbarlik kilish bilan boglik oo'lgan jamoat ishlariga jalb eta borish.

17. O'smirga o'z irodasini tarbiyalab borishda yordam kursatish.

18.O'smirning o'z xulq-atvori va faoliyati tugrisida jamoa °ldida muntazam ravishda xisob berib borishni tashkil qilish.

19.Axloqiy jinsiy tarbiya berish bilan boglik bulgan tadbirlarni amalga oshirish.

20.Usmirni ahloq-huquq tarbiyasi xamda ma'naviy-ma'rifiy ta'lim bilan boglik bo'lgan tadbirlarga jalb eta berish.

21.Usmirni jamoat ishlariga faol ishtirok ettirish ayniqsa undagi gerdayish, o'ziga bino ko'yish, xudbinlik odatlarini yo'qotishga ko'maklashuvchi topshiriklarni bajarishga jalb qilish.

22.Usmirni bilimni oshirish bilan boglik bo'lgan to'garaklar va seksiyalar mashgulotlariga tortish.

23.Usmirga o'kuv hamda o'quv ishlab chiqarish ishlarida muntazam yordam ko'rsatish.

24.Mustaqil ravishda aqliy faoliyat bilan shugullanish yo'llarini o'rganib borish.

25.Xotirani rivojlanitirish yuzasidan maxsus ishlar olib borish.

26.Usmirning texnika ijodiyoti bilan boglik bo'lgan tugaraklar ishida albatta ishtirok etishiga erishish.

27. Professional mahorat va malakalarini egallashda o'smir duch kelayotgan kiyinchiliklarni aniklash individual ishlar olib borish jarayonida unga muntazam yordam ko'rsatish.

28.Tajribali ishchilar tomonidan individual tarzda otalik qilishni tashkil etish o'smirni ishlab chikarish jamoasining hayotida aktiv ishtirok etishga o'rgatish.

29.Usmirni uz tengdoshlari uchun. kichik yoshdagi bolalar. bemorlar va keksa kishilar uchun kilinadigan xayrli ishlarga jachb etish.

30. O'z-o'zini tarbiyalash dasturini ishlab chikarishda va uni amalga oshirishda o'smirga yordam ko'rsatish.

31. Jismoniy tarbiya bilan muntazam shugullanish.

32.Usmirning turli xil ijtimoiy foyddli ishlarda ishtiroketishiga erishish.

Olib borilgan tajribalar va maxsus tadqiqotlar asosida shu narsa aniklanganki, o'smirlardagi muayyan kamchiliklarning bartaraf kilishi ularni muayyan faoliyat yo'nalishlari va turlariga jalb etishni talab kiladi. Bunday faoliyat yo'ialishlari va turlari kuyida ko'rsatib o'tiladi.

Shaxsning salbiy sifatlari. ularni bartaraf etishga ko'maklashuvchi asosiy faoliyat yo'nalishlari va turlari.

Axlodiy rivojlanishdagi kamchiliklar va mexnatga munosabat boshlangan ishni oxirigacha yetkazmaydi Jamoaga nisbatan befark Odamlarga nisbatan beparvo Tund odamovi Yalkov aytganni kilmaydigan intizomsiz Jamoa fikri bilan xisoblashmaydi Bal fe'l, badjaxl Oldinda borishga, ustunlikka intiladi O'ziga nisbatan tankidiy munosabatda Bo'lmaydi, o'ziga bino ko'yan, kekkaygan Qo'pol uyatsiz surbet Xudbin Serjaxl Beraxixm Kek saqllovchi . Beparvo, pala-partish Arazchi, salga xafa bo'luvchi Ishlab chikarish ta'lim darelarida passiv Aktiv emas Nazariy ta'lim darelarida passiv yoki aktiv

emas Ishlab chikarish praktikasiga Nisbatan salbiy munosabatda bo'ladi. Irodaviy kamchiliklar Ahloksiz onaning xatti-xarakatlari bolalariga ikki xissa yomon ta'sir ko'rsatadi. Birinchi-dan, bolalarni ichkilikka va betartib jinsiy aloqaga o'rgatish yo'li bilan bolalarga uning xatti-harakatlari to'gridan-to'g'ri ahloqqa zid ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Ikkinchidan, ko'p hollarda bunday onalar karovsiz qolgan o'z farzandlarining tarbiyasi bilan aslo ilgugullanmay ko'yadilar. Faqat shuni yana bir bor eslatib Ko'ymokchimizki, ota-onalar bilimining chukur bo'lmasligi, ota-onalarning ma'naviy jihatdan haddan tashkari qashshokligi, Umumiy madaniy saviyaning nixoyatda pastligi, meshchanlarcha dunyoqarash, bunday oilalarning ko'pchiligi uchun xos bo'lgan xususiyatdir. Bu singari oilada yashagan va meshchanlarcha (shaxsiy manfaatlardan boshka narsani bilmaslik, fikri tor, chegaralangan) dunyoqarashga ega bo'lgan kishilar har qanday ma'naviy talab va ehtiyojlardan voz kechib bo'lsa ham moddiy farovonlikka erishish uchun ochiqdan-ochiq harakat qiladilar.

Pedagogik jihatdan o'z holiga tashlab ko'yilgan o'quvchilarning ota-onalari o'z bolalarining tarbiyasiga nisbatan qanday munosabatda 'ekanliklariga qarab ularni eng tipik hisoblangan katta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruqqa o'z bodalariga nisbatan pedagogik jixatdan savodli, obyektiv munosabat kiradi. Tarbiyasi kiyin bo'lgan bolalar va o'smirlar vujudga keladigan oilalar ichida bunday oilalar kamdan-kam uchraydi. Bunday oilalarda tarbiyaning kiyin bo'lishi qandaydir kutilmagan tashqi shart-sharoitlar orqaligina vujudga keladi.

*Sobir degan bolaning jinoyat tarixi - buning kamdan-kam uchraydigan misollaridan biridir. Bu bola har jihatdan bekamu-ko'st yashaydigan, o'ziga to'q oilada usadi. Birok, uning onasiga nisbatan o'gay ona juda yomon munosabatda bo'ladi. Bu esa bolani kattiq iztirob chekishga majbur kiladi. Ogir kasallikdan keyin vafot etgan oilasining xakorat kilgan o'gay onani Sobir kechira olmaydi. U ortiq darajada gazablanish ta'siri ostida, «buvisi»ga ogir tan jarohati yetkazadi. Bu ayol yolgiz yashar edi, Sobirning oilasi, aslini olganda unga ozgina bo'lsa ham sezilarli ta'sir kursatishi .Mumkin emas edi, shuning uchun ham mazkur hodisani ana shunday kutilmagan hodisalar kategoriyasiga kiritish mumkin.*

Ikkinchi guruxga bola haddan tashkari erkatash obyektiv aylanib qolgan oilalar kiradi. Bunday oilada bolaga hamma ishni qilishga ruxsat beriladi, butun e'tibor unga karatilgan bo'ladi, ayni maxatda maktabda, liseyda, kasb-xunar kollejida uning tevarak-atrofida qolgan barcha narsalarga, boshka bolatarga nisbatan befarq yoki salbiy munosabatda bo'linadi. Bunday kategoriyadagi oilalar birinchi guruxdagi oilalarga Karaganda ancha kuprok bulsa-da, lekin umuman olganda xayotda nisbatan kam uchraydi. Masalan, prokuror, sudya bulib ishlagan 3.3. oilasini olaylik. Uning o'gli Sherzod ota-onaning fikriga

Karaganda hyech narsaga muhtojlik sezmasdi. Unda hamisha hamma narsa: kundalik xarajatlari uchun ancha-muncha pul. katta zamonaviy xovli, zamonaviy radioelektron apparat, ulkan shaxsiy garderob, unga ota-onalari o'rtoqlarini chakirib ziyofatlar uyushtirishga xam ruxsat berib ko'yilgan edi. Sherzodning axloki bunday «tarbiya» natijasida kandy shakllana borganligi to'grisida gapirganda fakat birgina faktni keltirib o'tish yetarli bo'lsa kerak, deb o'ylaymiz. U jinoyat kilgandan keyin: «Sen bu jinoyatning ota-onang uchun kandy oqibatlar bilan tugashi to'grisida o'ylab ko'rdingmi?» -deb bergan savolga Sherzod aftini burishtirib turib: «Men tupurdim ularga!», -deb javob beradi. Jinoyat esa xiylagina ogir edi. Bir gurux o'smirlar uning uyida Sherzod bilan birga ichkilik ichishib yana spirtli ichimliklarni to'plab, zapas kilib

olish uchun do'konga borishadi, u yerda janjach chiqarib mushtlashib ketishadi, natijada jabrlanuvchi kishilarning biri kattiq jarohatlanadi.

Uchinchi guruh o'kuvchi o'smirlarning oilalari ichida xammadan ko'ra ko'prok uchrab turadi voyaga yetmagan holda qonun buzarlilik qilgan bolalar oilalari o'rtasida esa tadqiqotchilarning birining ma'lumotlariga Karaganda bunday guruxdagi oilalar tadqiqot kilingan barcha kariyb beshdan bir kismini tashkil etadi. Bunday oiladagi ota-onalar turli jihatdan axloksiz bo'lgan kishilardir. Otalarning ko'pchiligi piyonista-arokxo'rlar, onalar orasida esa tartibsiz ravishda jinsiy alokaga kiruvchilar hamda ko'p hollarda spirtli ichimliklar ichuvchi ayollar uchrab turadi; jinoyat qilganligi uchun kamalib chikqan yoki yotgan ota-onalar ham ana shu toifaga kiradi. Bunday ota-onalar o'z bolalariga nakadar salbiy ta'sir ko'rsatishi o'z-o'zidan ravshan va uning uchun ham bu yerda misollar keltirib o'tirmasak xam bo'ladi.

Pedagogik jixatdan o'z holiga tashlab quyilgan o'kuvchilar oilalarining eng katta guruxi ana shunday oilalarning asosiy, eng ko'p kismini tashkil etadi. Bular uz farzandlarining tarbiyasi bilan shugullanmaydigan ota-onalardir. Ularning «formulasi» shunday: «Biz bolalarimizni maktabga topshirdik, Ularni ana o'sha yerda tarbiyalayversin!»-deyiladi. Ushbu <sup>8</sup>Uruhdaagi oilalarni yana uchta anik tin i k tarzdaagi kichik guruxlapra bo'lish mumkin:

1) Yuqorida ko'rsatib o'tilgan uchinchig guruxga mansub belgilar manjud bo'lgan kishilar (ahloksiz ota-onalar);

2) Bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanib o'z jonini kiynashni istamaydigan ota-onalar;

3) o'z ishida band bo'lganligi xamda bola tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yolgiz onalar ushbu kichik guruxdaagi kishilarning ko'proq kismini tashkil etadi.

Mana shu kichik guruxdaagi oilalarda bolalar va o'smirlar mukarrar ravishda nazoratsiz koladilar va ularning ko'pchiligi pedagogik jixatdan o'z xoliga tashlab qo'yilgan bolalarga aylanib ketadi. Biz tarbiyasi og'ir, qiyin o'smirlar bilan olib boriladigan ishning asosiy prinsiplari va shakllarinigina sanab o'tamiz.

Birinchiidan. xanuzgacha uchrab turadigan ayrim o'quv yurtlaridagi. maktablardagi pedagoglar bilan o'quvchilar oilalari o'rtasidagi noto'g'ri munosabatlarni keskin tarzda o'zgartirish kerak. Oilalar yukorida aytib o'tilgan «formula» bo'yicha xarakat kiladilar (ya'ni ular: «Biz bolalarimizni sizlarga topshirdik. o'zingiz tarbiyalab olingiz!» deyishadi), maktablarda, o'quv yurtlarida esa ularni tankid kilishadi, ulardan talab kiladi va ularga akl o'rgatadi. Tarbiya huquki va tarbiyalash burchi bu xam oilaning xam maktabning xam, o'kuv yurtlarining ham vazifasidir. Faqat tarbiyaning mazmuni, ayniksa uning forma va metodlari, texnologiyasi bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu yerda, tomonlarning xech biri o'zini yukori ko'yishi va o'z rolini ortik deb bilishi mumkin emas. Bu yerda pedagogik hamkorlik kilishi kerak - oila bilan maktabning, o'kuv yurtining o'zaro alokasini va o'zaro birga ish olib borishini ta'minlovchi o'zini oklagan yagona ish formasi ana shudir.

Ikkinchiidan. xar kanday oilaga samimiy. holisona munosabatda bo'lishi eng avvalo, unga yerdam ko'rsatishga xarakat kilish lozim, shundan keyingina barsharti oila aktiv ravishda ishga to'siklik kiladigan bulsa, biz quyida to'xtalib o'tadigan boshqacharoq xarakatdaagi chora-tadbirlarni ko'llanish kerak bo'ladi.

Uchinchiidan. Uzbekistan Respublikasi Konstitusiyasiga asoslanib, maktablarda. o'kuv yurtlarida xam. ota-onalarga bolalar tarbiyasi to'g'risida gamxo'rlik kilishi xamda

ularni barkamol kishilar kilib tarbiyalashini ta'min etishni qattik xurib talab qilishi darkor.

To'rtinchidan, o'smir tomonidan o'quv yurti kasb-hunar kolleji ga kabul kilishini so'rab ariza berilgan kundan boshlabok o'kishni bitirib ketguniga qadar uning oilasini o'rganish, u yerdagi axvolni chuqur va xar tomonlama bilib olish. ota-onalar bilan ishonchga asoslangan do'stona munosabatlarda bilish lozim.

Oila bilan olib boriladigan ishlarning asosiy forma va metodlari ularning maksadiga karab kuyidagicha hukuklashtirilishi mumkin: Ota-onalarga pedagogik bilim berish: ularni o'kuv yurti hayotiga faol ishtirok ettirish; o'kuvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlarni muvofiklashtirish; o'z bolalari tarbiyasi bilan shugullanishdan bosh tortgan yoki ularga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ota-onalarga nisbatan jamoatchilik, ma'muriy va jinoiy qonunlarni tadbik etish yo'li bilan chora ko'rish.

Aslini olganda, bolalar o'kuv yurtlari, maktablardan tashkarida o'z holiga tashlab qo'yilgan xamda xech kanday tashkiliy ravishda ijobiy tarbiyaviy ta'sir duch kelmagan bo'ladilar. Shuning uchun tarbiyaviy ta'sir tadbirlari kuyidagi yo'nalishda bo'lmogi kerak; o'kuvchining kundalik rejimi to'g'risida, uning moddiy va maishiy ta'minoti to'g'risida. salomatligi to'g'risida, gamxo'rlik kilish zarur chekish, spirtli ichimliklar ichish, jinsiy masalalarga ortik darajada kizikish singari yaram as odatlarga karshi kurash olib borish aloxida e'tiborni talab kiladi; o'kuvchilar shaxsan bo'sh vakti o'tkazishning tashki shakl-formalariga jalb kilish zarur.

Ota-onalarga spirtli ichimliklarni xaddan tashkari ichadigan va xuddi shu sababdan ko'pgina bunday yaramas odatga voyaga yetmagan bolalarni xam urganadigan oilalarda olib boriladigan ishlar aloxida e'tibor berilishini talab kiladi. O'quvchilar bilan xam ularning ota-onalari bilan xam bu sohadagi tarbiyaviy ishlar uch yunalishda: medik-fiziologik. sosial-pedagogik xamda xukukiy konun-koidalar yo'nalishida olib borilishi kerak.

Metodik-fiziologik yo'nalishdagi ishlar, tabiiyki, vrachlar tomonidan. eng avvalo, norkologlar va psixiatr vrachlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu ishlarning mazmuni ochib berilayotganda asosiy e'tibor alkogolizm, umuman, shaxsni naqadar ogir oqibatlarga olib kelishiga, odamning psixik va jismoniy (shu jumladan, jinsiy) rivojlanishiga naqadar yomon ta'sir ko'rsatishga, spirtli ichimliklarning naslga (jismoniy va psixik jihatdan nogiron bolalar tug'ilishiga) ta'sir etishiga qaratiladi.

Sosial pedagogik yo'nalish ko'proq o'kuv yurtlari xodimlarining o'zlari tomonidan amalga oshiriladi va uning asosiy maqsadi ota-onalarga va o'kuvchilarga spirtli ichimliklarning, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga shu jumladan, oilaviy munosabatlarga kursatadigan salbiy ta'sirini, piyonistalik ishlab chikarishga nakddar katta zarar keltirishini tushuntirib berishdir.

Hukukiy yo'nalishning asosiy maksadi spirtli ichimliklar ichib mayet holda bo'lgan shaxslarning hatti-xarakatlari va xulk-atvorlari qanday okibatlarga olib kelishini hamda u shaxslarning qonun oldidagi javobgarligini tushuntirib berishdan iboratdir. Ukituvchilar va ota-onalar shuni yaxshi bilishlari kerakki, jinoyatlarning ko'pchiligi spirtli ichimliklar ichib mastlik holati konunni buzgan kishining gunohini yengillashtirmaydi, balki og'irlashtiradi.

Adliya va ichki ishlar organlari o'quvchilarga huqukiy tarbiya berish bo'yicha olib boriladigan ishlarga doimiy ravishda ilmiy-metodik rahbarlik kiladilar.

## ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutk 1997.
2. Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 1992.
3. Boboyev X.B., A.X.Saidovlar umumiy taxriri ostida. «Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish». «Uzbekistan» nashriyoti Toshkent-2001.
4. Beshcheva S.A. «Сложный мир подростка». Sverxtovsk 1984.
5. To'laganova G.K. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya kursi buyicha tarbiyasi «qiyin» o'smirlar psixologiyasiga metodik kursyamatlar»-
6. Fayziyev Ya. M. «Umumiy va tibbiy psixologiya». Toshkent Abu Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2000.
7. G'oziyev E. G. «Tarbiyasi «Kiyin» o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.